

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOGLIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

**JAMOAT SALOMATLIGI, SOGLIQNI SAQLASHNI
TASHKILLASHTIRISH VA BOSHQARISH YO'NALISHI
BO'YICHA AMALIY KO'NIKMALARNI O'ZLASHTIRISH
UCHUN AMALIYOT**

TOSHKENT – 2010

614.2

724

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOGLIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»

O'zRSSV ning Fan va
o'quv yurtlari bosh
boshqarmasi boshligi

Sh.Z.Ataxanov




« 19 » yanvar 2010 y.
№ 10 bayonnoma

«KELISHILGAN»

O'zRSSV ning Tibbiy
ta'limni rivojlantirish
markazi direktori
M.S.Ynsupova

« 18 » yanvar 2010 y.
№ 9 bayonnoma

**JAMOAT SALOMATLIGI, SOGLIQNI SAQLASHNI
TASHKILLASHTIRISH VA BOSHQARISH YO'NALISHI BO'YICHA
AMALIY KO'NIKMALARNI O'ZLASHTIRISH UCHUN
AMALIYOT**



TOSHKENT - 2010

Tuzuvchilar: ToshPMI jamoat salomatligi, sogliqni saqlashni
tashkillashtirish va boshqarish kafedrası mudiri t.f.d., professor
Iskandarova Sh.T.,

ToshPMI jamoat salomatligi, sogliqni saqlashni tashkillashtirish va
boshqarish kafedrası professori t.f.d. Maxmudova N.M.,

ToshPMI jamoat salomatligi, sogliqni saqlashni tashkillashtirish va
boshqarish kafedrası katta o'qituvchilari G.A.Djalilova

Retsenzentlar: Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Jamoat salomatligi, sogliqni
saqlashni tashkillashtirish va boshqarish kafedrası mudiri d.m.n.,
professor Rustamova X.E.

TashPMI jamoat salomatligi, sogliqni saqlashni tashkillashtirish va
boshqarish kafedrası dotsenti t.f.n. V.T.Samadova

Jamoat salomatligi, sogliqni saqlashni tashkillashtirish va boshqarish
yo'nalishi bo'yicha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish va mustaqil ishlari
uchun uslubiy qo'llanma ToshPMI pediatriya va tibbiy-pedagogika fakulteti
talabalari uchun mo'ljallangan.


Uslubiy qo'llanma ToshPTI MUKda muhokama qilindi.

2009 «18» noyabr 3- № bayonnoma

Uslubiy qo'llanma ToshPTI Ilmiy Kengashida tasdiqlandi.

2009 «25» noyabr 4- № bayonnoma

Ilmiy Kengash kotibi Z.A.Shoriansurova



MUNDARIJA

Mundarija	3
Kirish	4
1. Sanitar statistika asoslari	5
2. Aholi salomatlik ko'rsatkichlari	41
2.1 Demografiya	41
2.2 Kasallanish	42
2.3 Jismoniy rivojlanganlik	43
3. Sogliqni saqlashni tashkillashtirish va boshqarish	46
3.1 Sogliqni saqlashni rejalashtirish va moliyalashtirish	46
3.2 Bolalarga ambulatoriya-poliklinika yordamini tashkillashtirish	50
3.3 Maktab va maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarga tibbiy xizmatni tashkillashtirish	58
3.4 Bolalarga kasalhona tibbiy xizmatni tashkillashtirish	61
3.5 Ayollarga akusher-ginekologik xizmatini tashkillashtirish	65
3.6 Qishloq joylarda ayollar va bolalarga davolash-profilaktika yordamini tashkillashtirish	69
3.7 Vrachlik mehnat zkspertizasini tashkillashtirish	75
3.8 Aholiga sanitar-zpidemiologik xizmatini tashkillashtirish	80
3.9 Sanologiya va soglom xayot tarzi asoslari	81
4. Kurs ishi to'grisida	83
5. Adabiyotlar ro'yxati	107

KIRISH

Mazkur uslubiy qo'llanma ToshPMI talabalariga jamoat salomatligi va sogliqni saqlashni tashkillashtirish fani bo'yicha mustaqil ish olib borishlari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, ushbu fan bo'yicha amaliy ko'nikmalarni (hisob-kitob, kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarini tahlili, reja tuzish, bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat samarasini oshirishda tadbirlar ishlab chiqish va davolash-profilaktik muassasalarning tashkiliy tarkibini o'rganish) mustaxkamlab olishga yordam beradi.

Talabalarning mustaqil ishlari shunday tashkil qilishi lozimki, bunda talabalar jamoat salomatligi, sogliqni saqlashni tashkillashtirish va boshqarish yo'nalishidagi dasturni asosiy xajmini maksimal darajada egallab olishlari xamda kelajakda pediatri soxasi amaliyotida qo'llay olishlari kerak.

Mustaqil ishni bajarish amaliy darslarda o'qituvchilar ishtirokida, kurs ishlarini tahlil qilishda va darsdan so'ng o'qituvchilar maslaxati bilan olib borilishi rejalashtirilgan.

Mazkur uslubiy qo'llanmani ishlab chiqishda Prezidentimizning oxirgi yillardagi sogliqni saqlash bo'yicha buyruq va farmoyishlari, O'zbekiston Respulikasi Sogliqni saqlash vazirligi buyruqlari va dasturlari hisobga olingan.

Talabalarga mustaqil ishlarini bajarishlari va kurs ishini tahlil qilishlari, xamda amaliy ko'nikmalarni mustaxkamlashlari uchun ushbu uslubiy qo'llanmada darsdan tashqari adabiyotlardan foydalangan holda referatlar yozish, ko'rsatkichlarni hisoblash va masalalar yechish tavsiya qilinadi.

I. TIBBIY STATISTIKA ASOSLARI

«Tibbiy statistika» bo'limida amaliy mashg'ulotlarda va mustaqil ishni bajarish davrida talabalarga statistik tadqiqot tashkil qilish masalalari, tadqiqot dasturini ishlab chiqish, statistik ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish; ya'ni statistik miqdorlar, nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash va grafik tasvirlarda ifodalash, dinamik qator ko'rsatkichlarini tahlil qilish, o'rtacha miqdorlarni hisoblash, ko'rsatkichlarni xaqqoniyligini aniqlash, standartlashtirish usulini qo'llash o'rgatiladi.

Kolleksiya va natijalar kafedrada olib boriladi. Talabalar o'zlashtirishlari nazorat qilingach va yangi mavzu tushintirib bo'lingach, amaliy mashg'ulotda talabalar mustaqil ravishda situatsion masalalar yechadilar, nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblaydilar, dinamik qator ko'rsatkichlarini tahlil qiladilar, o'rtacha miqdorlarni hisoblaydilar va ularning xaqqoniyligini aniqlaydilar, jadvallar maketini tuzadilar xamda qoishilgan natijalarni grafik tasvirlarda ifodalaydilar.

1.1. Statistik tadqiqot olib borishni tashkillashtirish. Statistik majmua, statistik miqdorlar. Statistik tadqiqot dasturini tuzish, statistik ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish.

Talabalar statistika xaqida tushunchaga ega bo'ladilar, uning asosiy vazifalari bilan tanishadilar, tadqiqot ob'ektini tanlashni, ma'lumotlar yigish usullarini, aholi sogliqini belgilovchi ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishni urganadilar.

Statistik majmua – bu ma'lum bir xududda va ma'lum bir vaqt ichida olingan nisbatan bir xil bo'lgan elementlardan iborat guruhdir. Statistik majmua alohida birlamchi kuzatuvlardan iborat bo'lib, maxsus usul bilan shakllangan guruhdir.

Kuzatuv birligi – bu statistik majmuada tadkik qilinayotgan xar bir birlamchi element. Statistik majmuadagi kuzatuv birliklarini soni tadqiqotlar xajmini aniqlashda va «n» xarfi bilan belgilanadi.

Statistik tadqiqot – bu statistik usullar asosida jamiyatdagi hodisalarni o'rganish jarayonidir. Xar bir statistik tadqiqot 4 bosqichda olib boriladi.

I bosqich: Tadqiqot dasturi va rejasini tuzish. tadqiqot dasturi – bu tadqiqotning maqsad va vazifalarini aks ettiruvchi va kuzatuv jarayonida javoblari qayd qilinishi mumkin bo'lgan savollar majmuasidir. Tadqiqot dasturi kuzatuv ro'znomasi va taqlil bayonnomalaridan iborat bo'ladi.

Kuzatuv ro'znomasi tadqiqot jarayonida qayd qilinishishi mumkin bo'lgan barcha kuzatuv birliklaridan va ob'ektni belgilaydigan savollardan tashkil topgan

Tahlil bayonnomasi – bu tatqiqot jarayonida o'rganilayotgan hodisalarni o'zgarishini va ular orasidagi bogliqliklarni belgilashda hisobot yo'llari ko'rsatilgan jadvallar maketidan iboratdir. Statistik jadvallar maketi tatqiqot dasturi asosida tuziladi.

Statistik jadvallar – bu statistik tatqiqot natijalarini yaqqolroq namoyon etadigan tizimdir. Statistik jadvallar oddiy, guruhli va kombinatsiyali turlarga bo'linadi. Oddiy jadval – bir belgi bo'yicha ma'lumotlarni taqsimlashdir. Guruhli jadvallar – ikki va undan ko'p bir biriga bogliq bo'lmagan belgilarni ifodalaydi. Kombinatsiyali jadvallar – bu bir-biriga bogliq bo'lgan ikki va undan ko'p bo'lgan belgilarni ifodalaydi.

Tatqiqot rejası ma'lumot yigish, uni ishlab chiqish va tahlil qilish uslublarini o'z ichiga oladi, xamda tatqiqot jarayonidagi tashkiliy masalalarni ko'rib chiqadi.

II bosqich: ma'lumotlar yiqish.

III bosqich: statistik ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish.

Bu bosqich quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: yigilgan ma'lumotlarni nazorat qilish, kodlash, guruhlash, jadvallarga kirgazish, ko'rsatkichlarni hisoblash, erishilgan natijalarni grafik tasvirlarda ifodalash.

IV bosqich: tahlillarga asoslanib xulosa chiqarish va amaliyotga tadbik etish.

Grafik tasvirlar.

Grafik tasvirlar tatqiqot olib borish jarayonida erishilgan natijalarni – statistik ko'rsatkichlarni yaqqolroq ko'rsatish maqsadida qo'llaniladi. Grafik tasvirlarning quyidagi turlari mavjud:

- I. Diagrammalar (chizikli, radialli, ustunli, ichki-ustunli, sektorli, shaklli va xajmli).
- II. Kartogrammalar.
- III. Kartodiagrammalar.

MASALALAR:

Berilgan ko'rsatkichlardan foydalangan holda ularga mos keladigan grafik tasvirlar tuzing.

№ 1.

yer sharida yashaydigan aholining taxminiy soni mln.da

Jami	4495	G - mamlakatda	483
A - mamlakatda	680	D - mamlakatda	627
B - mamlakatda	2682	E - mamlakatda	23

№ 2.

Yer yuzidagi ba'zi mamlakatlardagi aholining taxminiy soni

Mamlakatlar Aholining taxminiy soni (mln.da)

1.	996,2
2.	663,6
3.	268,8
4.	229,8
5.	123,0
6.	117,7

№ 3.

Osiyo mamlakatlarida 2007-2008 yillarda tugilishlar ko'rsatkichi (1000 aqoliga nisbatan tugilganlar soni)

Mamlakatlar	Tugilish	Mamlakatlar	Tugilish
1	49,0	6	19,5
2	32,9	7	44,5
3	35,2	8	50,4
4	41,1	9	30,4
5	24,1	10	27,6

№ 4.

Ba'zi mamlakatlardagi ayollar va erkaklar soni (% larda)

erkaklar	Ayollar
49,7	50,6
47,9	52,1
45,0	55,0
46,1	53,9
46,2	53,8
46,3	53,7

№ 5.

Bir necha yillar davomida aholining umumiy o'lim ko'rsatkichlari

Yillar	1000 aholiga nisbatan o'lganlar soni
1998	29,1
1999	20,3
2000	18,0
2001	9,7
2002	7,1
2003	7,3
2004	8,2
2005	8,2

2006	8,5
2007	8,6

№ 6.

Bir necha yillar davomida aholining umumiy tugilish ko'rsatkichlari (taxminiy)

Yillar	1000 aholiga nisbatan tugilganlar soni
1998	45,5
1999	44,0
2000	31,2
2001	26,7
2002	24,9
2003	18,4
2004	17,4
2005	17,8
2006	17,8
2007	17,6

№ 7.

Bir necha yillar davomida bolalar bohchalari, bohcha-yasllardagi bolalar soni

Yillar	Bolalar soni (minglarda)
2004	4,5
2005	1953,0
2006	7673,0
2007	9499,0

№ 8.

Bir necha yillar davomida ba'zi mamlakatlardagi shahar va qishloq aholisi soni

Yillar	Aholi soni(mln.da).	
	Shahar aholisi	qishloq aholisi
2003	28,5	130,7
2004	60,4	130,9
2005	100,0	108,8
2006	136,0	105,7
2007	171,7	97,1

№ 9.

Bir necha yillar davomida ba'zi mamlakatlarda maktabgacha bolalar muassasalaridagi bolalar soni

Yillar	Bolalar soni (minglarda)
2003	1953,0
2004	7673,0
2005	11523,0
2006	14755,0

№ 10.

Ba'zi mamlakatlarda shifokorlar soni (taxminiy minglarda)

Уиллар	Vrachlar soni
2003	554,2
2004	668,4
2005	697,4
2006	733,0

№ 11.

Ayrim mamlakatlarda shifokorlar soni (taxminiy minglarda)

Mamlakatlar	Vrachlar soni
A	733,0
B	35,6
V	393,2
G	123,5
D	85,6
E	149,3

№ 12.

Ba'zi mamlakatlarda aholini o'rta tibbiy xodimlar Bilan ta'minlanganlik darajasi (1000 aholiga nisbatan o'rta tibbiy xodimlar soni)

Mamlakat	O'rta tibbiy xodimlar soni
A	115,5
B	104,7
V	99,4
G	84,6
D	114,0
E	110,7

1.2. Nisbiy miqdorlar

Absolyut sonlar chegaralangan axamiyatga ega, lekin shunga qaramasdan ular u yoki bu holatning o'lchami ayrim hollarda muhim axborot beradi (bemorlar soni, o'lganlar, tugilganlar). Ular yordamida xoli uchraydigan holatlarni xarakterlashda foydalanish mumkin. (Vaboning 1 qolati, difteriyaning 5 holati). Ularning yagona kamchiligi taqqoslay olishda foydalanib bo'lmasligi. Bunday hollarda statistikada nisbiy miqdorlardan foydalaniladi.

Nisbiy miqdorlarning 4 turi farqlanadi:

1. Intensiv ko'rsatkich
2. Ekstensiv ko'rsatkich
3. Aloqadorlik ko'rsatkich
4. Yaqqollik ko'rsatkich

1. Intensiv ko'rsatkich – yoki tarqalish, chastota ko'rsatkichi hisoblanib shu muhitda tarqalayotgan kasallikni chastotasini xarakterlaydi. hodisani o'zaro boglangan muhitda tarqalish darajasini ko'rsatadi va shu muhitning o'zi berilgan holatni yuzaga chiqaradi.

Intensiv ko'rsatkich quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$X = \text{hodisa} \times \text{asos} / \text{ko'rsatilgan hodisani hosil qiluvchi muhit}$$

2. Ekstensiv ko'rsatkich – taqsimlanish ko'rsatkichi bo'lib, qismning butunlikka yoki umumiylikka munosabati bilan xarakterlanadi jami foizlarda % (kam qollarda promillyarda) ifodalanadi.

$$\text{Ekstensiv ko'rsatkich} = \text{hodisa qismi} \times 100 / \text{umumiy hodisa}$$

3. Aloqadorlik ko'rsatkichi – bir biri bilan bogliq bo'lmagan 2 miqdoriy majmualarni xarakterlaydi. Ular miqdori faqat logik taqqoslanadi va shunga asosan qodisani muhitda tarqalishini ko'rsatadi, hisoblash bo'yicha intensiv ko'rsatkich metodikasiga o'xshamaydi ammo mohiyatiga ko'ra farqlanadi.

$$\text{Aloqadorlik ko'rsatkichi} = \text{hodisa} \times \text{asos} / \text{hodisani ishlab chiqarmaydigan muhit}$$

4. Yaqqollik ko'rsatkichi absolyut, nisbiy yoki o'rtacha kattaliklarni ancha aniq va iloji boricha to'g'ri taqqoslash maqsadida qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich kattaliklarni qancha foizga yoki necha marta oshishi yoki kamayishini ko'rsatadi. Bunda tenglashtiruvchi kattaliklarni biri 100 ga tenglashtiriladi.

Yaqqollik ko'rsatkichi = $\text{qiyoslanayotgan hodisa} \times 100 / 1 \text{ yoki } 100 \text{ ga tenglashtirib olingan son}$

Masalan:

Namangan viloyatining bir tumanida 2007 yilda taxminiy 20000 ta aholi yashagan. Ushbu yilda tumanda 2000 ta kasallik ro'yxatga olingan bo'lib, bulardan angina – 700 ta, bronxit – 300 ta, virusli gepatit – 400 ta, jaroxatlanish – 600 tani tashkil etgan. 2005 yilda tumanda terapiya uchun ajratilgan o'rinlar soni 8 ta, 2006 yilda 6 ta, 2007 yilda 4 tadan iborat bo'lgan.

Nisbiy ko'rsatkichlarni 4 turini hisoblash tavsiya etiladi

1. intensiv
2. ekstensiv
3. aloqadorlik
4. yaqqollik.

Hisoblash usuli:

$$1. \text{I.K.} = \frac{\text{hodisa} \times \text{asos}}{\text{muhit soni}}$$

$$\text{I.K.} = \frac{2000 \times 1000}{20000} = 100 \%$$

$$2. \text{Z.K.} = \frac{\text{hodisa bo'lagi} \times 100}{\text{umumiy hodisa}} ;$$

$$\text{Z.K. angina} = \frac{700 \times 100}{2000} = 35\%;$$

$$\text{Z.K. bronxit} = \frac{300 \times 100}{2000} = 15\%;$$

$$\text{Z.K. virusli gepatit} = \frac{400 \times 100}{2000} = 20\%;$$

$$\text{Z.K. jaroxatlanish} = \frac{600 \times 100}{2000} = 30\%;$$

$$3. \text{Ya.K.} = \frac{\text{qiyoslanavotgan hodisa} \times 100}{100 \text{ ga tenglashtirib olingan hodisa soni}}$$

$$\text{Ya.K.} = \frac{8 \times 100}{4} = 20\%;$$

2007 yilda 2005 yilga nisbatan o'rinlar soni 20%ga qisqartirilgan

$$\text{Ya.N.} = \frac{6 \times 100}{4} = 15\%;$$

2007 yilda 2006 yilga nisbatan o'rinlar soni 15%ga qisqartirilgan

$$4. \text{A.K.} = \frac{\text{hodisa} \times \text{asos}}{\text{hodisaga bogliq bo'lmagan muhit}}$$

$$2005\text{y} . \text{A.K.} = \frac{8 \times 1000}{2000} = 0,4 \% \text{ va x.k..}$$

Nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun kerakli ma'lumotlar 1 jadvalda berilgan

Jadval №1

№	Punkt	2007 yilda aholi soni	Kasallanishlar soni	Ayrim kasallanishlar					
				Angina	Zotiljam	Skarlatina	Gepatit	Gelmintoz	Shikastlanishlar
1	A	70000	5000	2200	1800	300	360	340	
2	B	50500	6110	2000	1800	200	380	-	1730
3	B	36000	3200	600	700	800	340	760	-
4	Г	11000	7000	2420	2580	600	330	-	1070
5	Д	20100	2180	580	240	260	130	-	970
6	E	42000	3000	600	420	400	800	-	780
7	Ж	90000	8900	1000	1600	700	1800	-	3800
8	З	52000	2800	600	900	500	430	370	-
9	И	21000	4000	1100	1300	-	300	400	900
10	K	40600	4400	1700	1200	160	600	-	740
11	Л	86000	8000	1900	3800	-	500	300	1500
12	M	30000	2700	790	810	-	470	330	300

Ba'zi kasalxonalar

№	Nomi	Avvalgi yillar				Ushbu yil ma'lumoti
		2004	2005	2006	2007	2008
1	Gelmint kasalliklari uchun	4	5	7	8	10
2	Bolalar kasalxonolari uchun	3	4	6	8	11
3	Kattalar kasalxonolari uchun	25	24	22	21	20
4	Gepatit kasalliklari uchun	7	8	10	13	15
5	Yukumli kasalliklar uchun	95	80	76	70	60
6	Shikastlanish kasalxonolari uchun	10	13	15	17	18
7	Asab kasalliklari uchun	13	15	17	18	20

1.3. O'rtacha miqdorlar

O'rtacha sonlarni keng tarqalishi xar xil statistik guruhlarini taqqoslashda, ilmiy eskperimental va klinik tatqiqotlarni umumiy holatini baholashda qo'llaniladi.

Tanlama yiqindida o'rganilgan belgining miqdorini bir kattalik bilan ifodalaydigan songa o'rtacha son deyiladi.

Sanitariya statistikasida o'rtacha miqdorlarni quyidagi turlari farqlanadi:

1. moda (M_o)
2. mediana (M_e)
3. o'rtacha arifmetik (M).

Moda – variatsion qatorda eng ko'p uchraydigan varianta.

Mediana – variatsion qatorda o'rtacha holatni egallaydi.

1. O'rtacha oddiy arifmetik son:

$$M = \frac{\sum V}{n}$$

2. Vaznli (vzveshennaya) o'rtacha arifmetik son:

$$M = \frac{\sum VP}{n}$$

3. O'rtacha arifmetik soni fursat usuli:

$$M = A + \frac{EdP}{n}$$

bu yerda:

E- yigindi

V - variant

R – variantlar uchrash darajasi

Mo (A)– taxminiy o'rtacha son,

d – xar bir variantani taxminiy o'rtacha sondan oqishi ($d=V- A$)

n – kuzatuvlar soni ($n = ER$)

$E (d \times P) / n$ - bu birinchi darajali fursat bo'lib haqiqiy o'rtacha sondan taxminiy o'rtacha son qanchalik farqlanishini ko'rsatadi.

Oddiy o'rtacha arifmetik son oddiy variatsion qatordan hisoblanadi, variantlar faqat bir marotaba uchraydi va $n < 30$.

Vaznli (vzveshennaya) o'rtacha arifmetik son variantlar bir necha marotaba uchraganda va kuzatuv soni 30 kam yoki reg bo'lganda qo'llaniladi.

Kuzatuv sonlari katta sonlarda ya'ni 100, 1000 va undan katta sonlarda ifodalansa o'rtacha arifmetik son fursat usulida hisoblanadi.

Variatsion qatorning asosiy xususiyatlaridan biri uning o'zgaruvchanligi yoki zichligidir. Variatsion qatorni zichligini o'rtacha arifmetik sonning kvadrat oqishi xarakterlaydi. agar $M \pm 1G$ oraliqida kamida – 68,3% , $M \pm 2G$ – 95,5% va $M \pm 3G$ – 99,0% kuzatuvlar joylashgan bo'lsa, variatsion qator zich, kuzatilayotgan majmuadagi kuzatuv birliklarining taqsimlanishi esa simmetrik deb hisoblanadi. 95,5% va 99,9% natijaning ishonchliligini bildiradi.

O'rtacha arifmetik miqdorning vakillik xatosi (m) o'rtacha sonning ishonarliligini qo'llanillovchi mezon bo'lib, u quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$m = \pm G / \sqrt{QRn}$$

Masalan:

Berilgan ma'lumotlarga asoslanib 15 yoshli qiz bolaning o'rtacha bo'y uzunligini aniqlang

V (sm)	R
155	18
157	10
159	15
161	7
163	5

Aniqlash kerak: G i m

Hisoblash usuli

V	P	PV	d	dP	d ²	d ² P
155	18	2790	0	0	0	0
157	10	1570	2	20	4	40
159	15	2385	4	60	16	240
161	7	1127	6	42	36	252
163	5	815	8	40	64	320
	55	8687		162		852

$$M_{B3} = \frac{\sum V P}{n} = \frac{8687}{55} = 157,9.$$

$$M_{\text{по СП мом.}} = A + \frac{\sum dP}{n} = 155 + \frac{162}{55} = 157,9.$$

$$G = \pm \sqrt{\frac{\sum d^2 P}{n}} = \frac{852}{55} = \pm 15,49 = \pm 3,935.$$

$$m = \pm \frac{G}{\sqrt{n}} = \pm \frac{3,935}{\sqrt{55}} = \pm 0,530.$$

MASALALAR:

Variant 1

Dispepsiya kasalligining o'rtacha davolanish muddatini aniqlang
G i m ni toping

V (дни)	P
17	5
18	10
19	11
20	20
21	12
22	17
23	12
24	6
25	7
26	8

Variant 2

11 yoshli qizlarning ko'krak qafasi aylanasi o'rtachasini aniqlang
G i m ni toping

V (см)	P
58	5
59	7
60	10
61	24
62	15
63	14
64	7
65	4
66	8
67	2

Variant 3

Atmosfera havosi xaroratini o'rtachasini aniqlang G i m ni toping

V (T°)	P
14	1
15	1
16	2
17	4
18	11
19	5
20	3
21	2
22	1
23	2

Variant 4

8 yoshli qiz bolaning o'rtacha vaznini aniqlang G i m ni toping

V (кг)	P
19	4
20	6
21	8
22	12
23	16
24	13
25	9
26	7
27	5

Variant 5

17 yoshli o'smirlarning o'rtacha bo'y uzunligini aniqlang G, m ni toping

Variant 6

May oyida atmosfera havosining o'rtacha haroratini aniqlang G, m ni toping

V (sm)

R

170

8

171

9

172

10

173

14

174

18

175

15

176

11

177

10

178

8

179

7

180

6

181

4

V (sm)

R

20

4

22

6

23

6

24

8

25

10

26

9

27

7

29

5

30

5

Variant 7

Oktyabr oyida atmosfera havosining
o'rtacha haroratini aniqlang

G, m ni toping

V (t°)

P

18

1

19

1

20

2

21

3

22

12

23

5

24

3

25

2

26

2

Variant 8

13 yoshli o'gil bolalarning o'rtacha bo'y
uzunligini aniqlang

G, m ni toping

V (cm)

P

134

1

135

3

136

6

137

7

138

12

139

16

140

18

141

21

142

18

143

17

Variant 9


Aprel oyida atmosfera havosining
o'rtacha xaroratini aniqlang

G, m ni toping

Variant 10

Gipertoniya kasalligi bor bemorlarning
o'rtacha davolanish muddatini aniqlang

G, m ni toping



V (T ^o)	P
14	1
15	1
16	2
17	4
18	11
19	5
20	3
21	2
22	1
23	1

V (dni)	P
12	4
13	7
14	8
15	14
16	17
17	22
18	24
19	30
20	23
21	19
22	9

Variant 11

Angina kasalligining o'rtacha davolanish muddatini aniqlang
G, m ni toping

V (дни)	P
6	4
7	9
8	15
9	18
10	25
11	17
12	14
13	19
14	7
15	3

Variant 12

Imtixonidan oldin talabalarining o'rtacha tomir urushini aniqlang
G, m ni toping

V (уд. в мин)	P
85	2
86	3
87	4
88	8
89	7
90	4
91	8
92	10
93	12
95	22
96	6
97	4
99	3
100	2
101	1
102	5

1.4. Tatqiqot natijalarining ishonchliligini baholash

Statistik tadqiqot natijalarini ishonarligini baholash deganda qanday ehtimollik bilan tanlab olingan majmuadagi natijalarini general majmuaga qo'llash mumkinligi tushuniladi. Demak, tanlab olingan majmuadagi natijalar bo'yicha general majmuaga baho beriladi.

Ishonarlik chegarasi – bu o'rtacha (yoki nisbiy) miqdorlarning chegarasi hisoblanadi va ushbu chegaradan chetga chiqish hollari tasodifiy tebranishlar tufayli juda kamdan-kam ehtimolligi bor.

$$P_{gen.} = P_{tan.} \pm m$$

$$M_{gen.} = M_{tan.} \pm m$$

Lekin general majmuadan tanlab olingan ma'lum bir hajmni o'rganishda qanchalik xatolikka yo'l qo'yganligimizni bilishimiz kerak. Buning uchun o'xshashlik xatosi «m» aniqlanadi.

$$m = \pm \sqrt{P \cdot q / n}$$

$$m = \pm G / \sqrt{Qn}$$

bu yerda

m - o'rtacha arifmetik miqdorning o'rtacha xatosi;

q - tafovvt (oqish); ($q = 100 - P$; $q = 1000 - P$; $q = 10000 - P$)

G - o'rtacha miqdorning kvadratik o'qishi

n - kuzatuv birliklar soni

Ishonarlik mezonini yoki ishonarlik darajasi (t) tadqiqotchi tomonidan o'ziga kerakli aniqlik bilan natijani olish maqsadida tanlab olinadi. Kuzatuvlar soni yetarli bo'lganda, $t = 1$ bo'lsa, xatosiz prognoz ehtimolligi 68,3% ga, $t = 2$ bo'lsa, xatosiz prognoz ehtimolligi 95,5% ga, $t = 3$ bo'lsa, xatosiz prognoz ehtimolligi 99,0% ga teng bo'ladi.

Tanlab olingan majmuadagi olingan miqdorlar orasidagi farqning ishonchli bo'lishi ishonarlik mezonini (t – aniqlik mezonini) orqali o'lchanadi va u quyidagi formulalar orqali aniqlanadi.

$$t = P / m_p \geq 3$$

$$t = M / m_p \geq 3$$

Agarda kuzatuv birliklar soni 30 dan kichik bo'lsa, u holda o'rtacha va nisbiy miqdorlarning vakillik xatosi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$m = \text{SQR } P \times q / n - 1$$

$$m = G / \text{SQR } n - 1$$

Tibbiyot statistikasida ko'pgina hollarda turli majmualar natijalarini taqqoslashga to'g'ri keladi. Bunday vaqtda ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi har bir majmua natijasini baholash bilan emas, balki ularning ayirmasining ishonchliligi bilan baholanadi.

$$t = \frac{P_1 - P_2}{\text{SQR } m_1^2 + m_2^2} \geq 2,$$

$$t = \frac{M_1 - M_2}{\text{SQR } m_1^2 + m_2^2} \geq 2$$

bu yerda P_1 va P_2 ; M_1 va M_2 tanlab olingan majmuada olingan miqdorlar m_1^2 va m_2^2 — ularning vakillik xatolari

Agarda $t > 2$ bo'lsa, xatosiz prognoz ehtimolligi 95,0% ga teng bo'ladi va ikkala ko'rsatkich orasidagi farq ishonarli deb hisoblanadi.

Agarda $t < 2$ bo'lsa, xatosiz prognoz ehtimoli 95,0% dan kam bo'ladi, unda solishtiriladigan ko'rsatkichlarning orasidagi farq borligiga ishonch hosil qilib bo'lmaydi. Buni to'g'irlash uchun o'rganilayotgan majmua hajmini oshirish talab etiladi. Agarda majmuadagi kuzatuv birligini oshirganda ham farq shu holda qolsa,, solishtiriladigan ko'rsatkichlar orasida hech qanday farq yo'qligidan darak beradi.

Masalan;

O'rtacha va nisbiy ko'rsatkichlar xaqqoniyligini hisoblashda turli majmualarda hisoblangan ko'rsatkichlar xaqqoniyligini aniqlash talab etiladi (M_1 va M_2). Olingan ma'lumotlarga xato hfiqatdan xam imtixonon keyin talabalarining tomir urishi tezligi sekinlashishi va me'yoriga tushishiga ishonch hosil qilish mumkinligini aniqlang, agarda imtixonon oldin talabalar tomir urushi tezligi o'rtacha minutiga 98,8 tani tashkil kilgan bo'lsa ($m_{M1} = 4$.);, imtixonon keyin minutiga 84 tani ($m_{M2} = 5$) tashkil etgan.

Hisoblash usuli

O'rtacha miqdorlar orasidagi farqni xaqqoniyligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$t = \frac{M_1 - M_2}{\text{SQR } m_1^2 + m_2^2} = \frac{98,8 - 84}{\text{SQR } 4^2 + 5^2} = \frac{14,8}{6,4} = 2,3$$

$t > 2$ bo'lganligi sababli, xamda (P) 95% dan yuqori ko'rsatkichni tashkil etganligi talabalarning tomir urushi tezligini imtihondan keyin xaqiqatdan ham sekinlashib me'yoriga yaqinlashib borishini isbotlaydi.

MASALALAR.

Ko'rsatkichlarni ishonarliligini baholash uchun kerakli ko'rsatkichlarni hisoblang va ishonchlilik mezonini toping. Ko'rsatkichlarning ishonch chegarasini belgilang va kerakli xulosa chiqaring

Masala №1

«N» tumanning aholisi 120000 kishi. Shundan 1360 kishi qizamiq kasalligi bilan og'rigan «M» tumanda aholi soni 60000. Shundan 610 qizamiq Bilan og'rigan. «N» va «M» tumanlari o'rtasida qizamiq kasalliklari ko'rsatkichlari farqining chinligini aniqlash kerak.

Masala №2

1992 yilda «quncha» bolalar bog'chasida 140 ta boladan 11 ta bola yuqumli ichak kasalligi bilan kasallangan 1992 yilda shu kasallikka qarshi profilaktik emlashdan keyin 125 ta boladan atigi 25 bola shu kasallik bilan og'rigan. Shu o'tkazilgan emlashning samaradorligini aniqlash kerak.

Masala №3

1996 yilda 41-maktabda 300 o'quvchining og'iz bo'shlig'ida sanatsiya o'tkazilganda 51 ta o'quvchida tish kasalligi aniqlangan. P m t ni aniqlang

Masala №4

«A» korxonada 1990 yilda 350 ta ishchi o'rtasida 13 jarohatlanish hodisasi yuz bergan 1991 yilda texnika xavfsizligi bo'yicha tushuntirish va sanitariya oqartuv ishlari olib borilgandan keyin 325 ta ishchi o'rtasida 5 ta jaroxatlanish hodisasi ro'y bergan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqning chinligini aniqlash kerak.

Masala №5

«V» bolalar bog'chasida yetti yashar bolalarning o'rtacha og'irligi 23.5 kg $G = \pm 2.27$, $m = \pm 0.25$

«G» bolalar bog'chasida yetti bolalarning o'rtacha og'irligi 24.2 kg, $G = \pm 1.6$, $m = \pm 0.5$

O'rtacha miqdorlar farqining chinlik darajasini toping.

Masala № 6

Maktab o'quvchilaridan 1500 ta bola tekshirilganda 315 tasida gelmentoz kasalliklari aniqlangan. Davolash ishlari o'tkazilgandan keyin 1400 ta boladan 113 tasi gelmentoz kasalliklari aniqlangan Davolash ishlarining samaradorligini aniqlash kerak .

Masala № 7

Kasalxonada bemorlarning o'rtacha yotgan kunlari 22 kunni tashkil qilgan. $m \pm 0,2$

Kasalxonada tamirlash, zarur asbob uskunalar bilan jixozlash, vrachlarning malakalarini oshirishdek tadbirlarni o'tkazgandan keyin bemorlarni kasalxonada yotishning o'rtachakunlari 18 kunni va uning $m \pm 0,2$ tashkil qilgan. O'tkazilgan tadbirlarning samaradorligini aniqlang.

Masala № 8

200 ta bemordan birinchi infarkdan so'ng 50 tasidan bir yildan keyin ikkinchi infarkt sodir bo'ladi. R,m,t toping.

Masala № 9

16 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan 300 ta buyrak kasalligi bilan kasallangan bemorlardan 47 tasida qon bosimi aniqlangan p,m,t aniqlang

Masala №10

“K” maktabda 550 ta o'quvchidan 1991 yilda 35 ta boladan sport o'yinlari bilan bog'liq jarohatlari qayd qilingan. 1992 yilda yangi sport joxozlari bilan taminlangandan keyin 470 ta o'quvchidan 13 tasida shunday jaroxatlanishlar qayd qilingan. qilingan tadbirlarning samaradorligini aniqlang.

1.5. Dinamik qatorlar.

Dinamik qator deb – biror hodisani ma'lum vaqt oralig'ida o'zgarishini ko'rsatadigan, bir xildagi qiyoslanadigan sonlardan iborat qatorga aytiladi.

Dinamik qatordagi sonlar – darajalar deb ataladi. qatorlar darajasi absolyut sonlar, nisbiy ko'rsatkichlar yoki o'rtacha sonlarda berilishi mumkin. Ko'pincha dinamik qatordagi darajalar bir-biridan anchagina farq qilishi mumkin. Bunday hollarda qator darajalarni tekislanadi. Dinamik qatorlar ikki turga bo'linadi: oddiy – agar qator darajalari absolyut sonlarda ifodalansa va murakkab – agar qator darajalari nisbiy ko'rsatkichlar va o'rtacha sonlarda ifodalansa.

Dinamik qatorni tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- Absolyut ko'payish – bu ushbu yilgi va o'tgan yilgi darajalar orasidagi farqdir.
- O'sish sur'ati – bu ushbu yilgi darajaning o'tgan yilgi darajaga nisbatining foizdagi ifodasidir.
- Ko'payishi sur'ati – absolyut ko'payishning o'tgan yil darajasiga nisbatining foizdagi ifodasi.
- Ko'rgazmali ko'rsatkich – qatordagi har bir darajaning 100% deb qabul qilingan darajaga nisbati.
- Absolyut ko'payish (kamayish) ning 1% ahamiyati – mutloq o'sishning ko'payish sur'atiga bo'lgan nisbati.

Masalan:

Berilgan ma'lumotlarga asosanib dinamik qatorni tahlil qilish ko'rsatkichlarini hisoblang:

- 1) absolyut o'sish
- 2) o'sish sur'ati
- 3) o'sishning 1% ahamiyati
- 4) ko'payish sur'ati

2003-2007 yillarda ba'zi mamlakatlardagi aholining taxminiy soni (mln.da)

2003g.	216,3
2004g	232,2
2005g.	243,9
2006g.	255,6
2007g.	266,6

yechish usuli:

Ko'rsatkichlarni hisoblash:

1. Absolyut o'sish - keyingi yil daraja bilan oldingi yil daraja orasidagi farq

$$1) 232,2 - 216,3 = 15,9$$

$$2) 243,9 - 232,2 = 11,7$$

$$3) 255,6 - 243,9 = 11,7$$

$$4) 266,6 - 255,6 = 11,0$$

$$5 \text{ yil mobaynida: } 266,6 - 216,3 = 50,3$$

$$2. \text{Ko'payish sur'ati} = \frac{\text{Absolyut o'sish}}{\text{Oldingi yil darajasi}} \times 100$$

$$1) \frac{15,9}{216,3} \times 100 = 7,3\% ;$$

$$216,3$$

$$3) \frac{11,7}{243,} \times 100 = 4,8\%$$

$$243,$$

$$2) \frac{11,7}{232,2} \times 100 = 5\% ;$$

$$232,2$$

$$4) \frac{11,0}{4,3} \times 100 = 4,3\%.$$

$$4,3$$

3.O'sishning 1% ahamiyati = $\frac{\text{Absolyut o'sish}}{\text{Ko'payish sur'ati}}$

$$\frac{15,9}{7,3} = 2,2;$$

$$2) \frac{11,7}{5,0} = 2,3;$$

$$3) \frac{11,7}{4,8} = 2,4;$$

$$4) \frac{11,0}{4,3} = 2,6.$$

$$5 \text{ yil mobaynida: } : \frac{50,3}{23,2} = 2,2$$

4.O'sish sur'ati = $\frac{\text{Ushbu yil darajasi} \times 100}{\text{Oldingi yil darajasi}}$

$$1) \frac{232,2 \times 100}{216,3} = 107,3\%$$

$$2) \frac{243 \times 100}{232,2} = 105,0\%$$

$$3) \frac{255,6 \times 100}{243,9} = 104,8\%$$

$$4) \frac{266,6 \times 100}{255,6} = 104,3\%$$

$$5 \text{ yil mobaynida } \frac{266,6 \times 100}{216,3} = 123,2\%$$

Olingan natijalar jadvalga yozib boriladi:

2002 yildan 2006 yilga davr aholi sonining usib borishi. (mln. da yilning boshida)

Ko'rsatkichlar	2003	2004	2005	2006	2007	Jami
Yilning boshida aholi soni, mln.	216,3	232,2	243,9	255,6	266,6	-
Absolyut ko'payish	-	+15,9	+11,7	+11,7	+11,0	+50,3
Ko'payish sur'ati	-	+7,3	+5,0	+4,8	+4,3	+23,2
O'sish sur'atining 1% ahamiyati	-	2,2	2,3	2,4	2,6	2,2
O'sish sur'ati	-	107,3	105,0	104,8	104,3	123,2

2002 yildan 2006 yilga davr ichida aholi sonini o'sib borishiga xato quidagicha xulosa qilish mumkin:

- 1) 5 yil mobaynida aholi soni 23% ga qadar ortgan yoki 50 mln.ga oshgan va 2008 yil 1 yanvarda 266,6 mln. aholini tashkil etgan.
- 2) Ko'payish sur'ati esa asta-sekin pasayib borgan va 2003-2004 y. 7,3% dan 2005-2007 y. 4,3% ga kamaygan.
- 3) Shunga xato o'sish sur'atining 1% axamiyati asta-sekin ortib borgan ya'ni 2,2 dan 2,6 mln.gacha.

MASALALAR.

Variant 1 SNG ayrim mamlakatida kasalxona o'rinlr soni (absolyut monlarda)		Variant 2 Tug'ilish ko'rsatkichi (100 aholiga nisbatan)	
1990g.	390	1992g.	24,7
1995g.	1288	1995g.	23,5
2000g.	1155	1998g.	24,5
2005g.	1245	2001g.	23,9
		2004g.	14,4
		2007g.	13,8

Variant 3.
Shahar aholisi soni
(mingta aholi)

1996g.	1060,0
1999g.	866,0
2002g.	1606,0
2005g.	3047,1
2008g.	4486,7

Variant 4.
qishloq aholisi soni
(mingta aholi)

1988g.	3306,0
1993g.	3392,0
1998g.	4945,0
2003g.	5608,1
2008g.	7818,2

Variant 5.
vrach-pediatrlar soni-
(absolyut sonlarda)

1999g.	1110
2001g.	1201
2003g.	1279
2005g.	1373

Variant 6.
Vrach – pediatrlar soni
(absolyut sonlarda)

1993g.	3306,0
1998g.	1935
2003g.	2964
2008g.	7009

Variant 7.
Kasalxona o'rinlari soni
(10000 aholiga nisbatan)

2004g.	92,2
2005g.	101,8
2006g.	85,4
2008g.	75,1

Variant 8.
O'rta tibbiy xodimlar soni
(absolyut sonlarda)

2004g.	234
2005g.	12300
2006g.	39339
2007g.	139299

Variant 9.
Leptospiroz bilan kasallanganlar
soni (absolyut sonda)

1987g.	326
1998g.	632
2001g.	1795
2004g.	2385
2007g.	1630

Variant 10.
qizamiq bilan kasallanganlar
soni (100000 aholiga nisbatan)

1992g.	605
1997g.	925,2
2002g.	133,9
2007g.	98,42

Variant 11
Virusli gepatit bilan kasallanganlar
(100000 aholiga nisbatan)

1986g.	239,4
1993g.	166,5
2000g.	301,9
2007g.	336,98

Variant 12
Utkir bronxit bilan kasallanganlar
(absolyut sonda)

1988g.	7167
1993g.	303
1998g.	270
2003g.	133
2008g.	138

1.6. STANDARTLASHTIRISH USULI

Standartlashtirish — tarkibi turli xil bo'lgan majmualardagi ko'rsatkichlarni bir-biriga taqqoslash qiyin bo'lgan hollarda umumiy intensiv (yoki o'rtacha) ko'rsatkichlarni o'rni bosadigan ko'rsatkichlarni hisoblash usulidir.

Standartlashtirilgan ko'rsatkichlar shartli miqdorlar hisoblanib, ulardan faqat taqqoslash maqsadida foydalaniladi, ammo hodisaning haqiqiy

darajasini ko'rsata olmaydi. Standartlash ko'rsatkichlari shartli bo'lib, taqqoslash maqsadida qo'llaniladi.

Statistikada standartlashtirishning 3 usuli farqlanadi:

Standartlashning to'g'ri usuli keng tarqalgan bo'lib, qiyoslanayotgan majmualar haqidagi barcha ma'lumotlar berilgan bo'lsa qo'llaniladi.

Bevosita usul – qiyoslanayotgan majmualarning muhiti (jinsi, yoshi, staji, kasbi bo'lishiga) tarkibi ma'lum, lekin hodisa (tug'ilganlar, o'lganlar, kasallanganlar soni) tarkibi ma'lum bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.

Teskari usul – hodisaning tarkibi ma'lum bo'lib, muhitning tarkibi noma'lum bo'lganda qo'llaniladi.

Standartlashtirishning to'g'ri usuli 5 bosqichdan iborat:

1 - bosqich – solishtirilayotgan majmualarda umumiy va maxsus intensiv ko'rsatkichlarni hisoblash;

2 – bosqich – standartni tanlash va hisoblash;

3 – bosqich – standartga nisbatan kutilayotgan natijani hisoblash;

4 – bosqich – standartlashtirilgan ko'rsatkichlarini hisoblash;

5-bosqich – standartlashtirilgan ko'rsatkichlarini intensiv ko'rsatkichlarga qiyoslash va xulosalar chiqarish.

Masalan. berilgan ma'lumotlarga ko'ra ikkita shifoxonada letallik ko'rsatkichlariga bemorlar tarkibining ta'siri haqida xulosa qiling.

2 ta shifoxona bo'limiga bemorlar va o'lganlarni taqsimlanishi

Bo'limlar	Shifoxona A		Shifoxona B	
	O'tgan bemorlar soni	O'lgan bemorlar soni	O'lgan bemorlar soni	O'lgan bemorlar soni
Terapiya	600	30	200	12
Jarrohlik	300	6	700	21
Yuqumli kasalliklar	100	4	100	5
Jami	1000	40	1000	38

Letallik ko'rsatkichlariga bemorlar tarkibining ta'siri haqida xulosa qilish uchun standartlashgan ko'rsatkichlarni hisoblash kerak. Bizga bemorlar soni (majmua hajmi) va hodisalar tarkibi (bemorlarni bo'limlar bo'yicha bo'linishi) ma'lum, shuning uchun biz standartlashning to'g'ri usulidan foydalanishimiz mumkin.

Yechish tartibi:

1 – bosqich – intensiv ko'rsatkichlarni hisoblash. Ikkita shifoxona bo'limlari bo'yicha letallik ko'rsatkichini hisoblaymiz.

Bo'limlar	Kasalxona № 1	Kasalxona № 2
Terapevtik	$30 \times 100 / 600 = 5 \%$	$12 \times 100 / 200 = 6 \%$
Jarroxlik	$6 \times 100 / 300 = 2 \%$	$21 \times 100 / 700 = 3 \%$
Yukumli kasalliklar	$4 \times 100 / 100 = 4 \%$	$5 \times 100 / 100 = 5 \%$
Jami	$40 \times 100 / 1000 = 4 \%$	$38 \times 100 / 1000 = 3,8 \%$

2 – bosqich – standart tanlash va hisoblash.

Standart sifatida taqqoslanayotgan majmualarning yig'indisi, shu yig'indining yarmi, majmualarning biri yoki mavhum son olinadi. Bizning misolimizda standart sifatida A va B shifoxona bo'limlari bo'yicha o'tgan bemorlar yig'indisi olinadi.

Terapevtik bo'limi $600 + 200 = 800$
 Jarroxlik bo'limi $300 + 700 = 1000$
 Yukumli kasalliklar $100 + 100 = 200$
 JAMI: 2000

3 – bosqich – standartlashtirilgan ko'rsatkichlarni hisoblash, ya'ni standartga nisbatan bo'limlarda kutilayotgan letallik darajasini aniqlash

Bo'limlar	Kasalxona № 1	Kasalxona № 2
Terapevtik	$800 \times 5 / 100 = 40$	$800 \times 12 / 100 = 96$
Jarroxlik	$1000 \times 2 / 100 = 20$	$1000 \times 21 / 100 = 210$
Yukumli kasalliklar	$200 \times 4 / 100 = 8$	$200 \times 5 / 100 = 10$

4 – bosqich standartlashgan ko'rsatkichlarni hisoblash

Kasalxona № 1	Kasalxona № 2
$40 + 20 + 8 = 68$	$96 + 210 + 10 = 316$
$\frac{68 \times 100}{2000} = 3,4 \%$	$\frac{316 \times 100}{2000} = 15,8 \%$

5 bosqich – standartlashgan ko'rsatkichlarni intensiv ko'rsatkichlar bilan solishtirish va xulosalar qilish

Olingan ma'lumotlarni jadval ko'rinishida namoyish qilish kerak:

Ko'rsatkichlar	A shifoxona	B shifoxona	Taqqoslash
Standartlashtirilgan	3,4%	4,4%	A < B
Umumiy intensiv	4%	3,8%	A > B

Xulosa: «A» va «B» shifoxonalarda standartlashtirilgan letallik ko'rsatkichlarini taqqoslash quyidagicha xulosa chiqarishga imkon beradi. Ikkala shifxonada o'tgan bemorlarni tarkibi bir xil bo'lganda letallik ko'rsatkichi «B» shifoxonada «A» shifoxonaga nisbatan yuqori bo'lar edi. Intensiv ko'rsatkichlarni taqqoslash «A» shifoxonada letallik ko'rsatkichi yuqoriligini ko'rsatayapti. Sababi, «A» shifoxonada yuqori letallik beradigan terapevtik profildagi og'ir bemorlar ko'p. «B» shifoxonada letallik ko'rsatkichi past, chunki, kam letallik beradigan jarrohlik bemorlari tashkil qilayapti.

MASALALAR:

Variant 1.

A va B tumanlaridagi bepushtlik ko'rsatkichini standartlash usulida hisoblang va oddiy usulda aniqlangan ko'rsatkich bilan solishtiring. Standart asosida A tumandagi ayollarning yoshi bo'yicha tarkibini oling va to'g'ri xulosa chiqaring.

A va B tumanlaridagi fertil yoshidagi va tuqqan ayollar to'g'risidagi ma'lumotlar.

Yoshi	A tumani		B tumani	
	Ayollar soni	Tugilganlar soni	Ayollar soni	Tugilganlar soni
15 – 20	1200	22	1000	18
21 – 30	7000	175	9000	225
31 – 49	10000	160	8000	128
Jami	18200	357	18000	371

Variant 2.

Yil davomida A va B kasalxonalaridagi letallik ko'rsatkichini standartlashtirish usulida aniqlang va oddiy usulda aniqlangan ko'rsatkich bilan solishtiring xamda to'g'ri xulosa chiqaring. Standart asosida B kasalxonadagi bemorlar sonini oling.

Kasalliklar nomi	A kasalxona		B kasalxona	
	Bemorlar soni	O'lganlar soni	Bemorlar soni	O'lganlar soni
Bronxial astma	200	4	180	4
Jigar tsirrozi	90	27	100	30
Stenokardiya	160	10	120	8
Jami:	450	41	400	42

Variant 3.

Poliklinika qamrovidagi bolalarning ovqatlantirilish xarakteriga xato raxit kasalligini standartlashtirish usulida aniqlang va intensiv ko'rsatkich bilan taqqoslang. Standart asosida poliklinika qamrovidagi 1 yoshli bolalarning yig'indisini oling.

Bolalarni ovqatlantirish xarakteri	Poliklinika A		Poliklinika B	
	1 yoshgacha bo'lgan bolalar	Ulardan raxit bo'lganlari	1 yoshgacha bo'lgan bolalar	Ulardan raxit bo'lganlari
Tabiiy	200	60	200	30
Aralash	200	30	100	30
Sun'iy	100	10	100	20
Jami:	500	100	400	80

Variant 4.

Shahar va qishloq aholi orasidagi o'lim ko'rsatkichini standartlashtirish usulida baholang va to'g'ri xulosa chiqaring. Standart asosida shahar va qishloq aholisini yoshi bo'yicha yig'indisini yarmini oling.

Yoshlari	Shahar aholisi		Qishloq aholisi	
	Aholi soni	Ulardan o'lganlar	Aholi soni	Ulardan o'lganlar
0 – 14	60000	600	200000	2000
15 – 49	90000	400	400000	1600
50 va undan yuqori	50000	900	100000	4000
Jami:	200000	1900	700000	7600

Variant 5.

Turli korxona ishchilarining yurak qon-tomir kasalliklari tufayli nogironlik belgilanganlik ko'rsatkichini standartlashtirish usulida baholang va to'g'ri xulosa qiling. Standart asosida ikki korxona ishchilarining (jinsi bo'yicha) sonini oling.

Jinsi	Korxona № 1		Korxona № 2	
	Ishchilar soni	Nogironlar soni	Ishchilar soni	Nogironlar soni
Эркаклар	300	11	200	7
Аёллар	300	10	400	17
Жами:	600	21	600	24

Variant 6.

Shahardagi № 1 va № 2 o'rta maktab o'quvchilarida miopiya kasalligi ko'rsatkichini standartlashtirish usulida baholang, ularni taqqoslang va to'g'ri xulosa qiling. Standart asosida maktab o'quvchilari sinf bo'yicha sonini yig'indisining yarmini oling.

Sinflar	Maktab A		Maktab B	
	Bolalar soni	Miopiya bo'lganlar	Bolalar soni	Miopiya bo'lganlar
1 – 3 й	200	4	400	8
4 – 8 й	600	60	400	40
9 – 10 й	200	10	200	10
Jami:	1000	74	1000	58

Variant 7.

Turli davrlar ichida korxonada yuzaga kelgan shikastlar sonini standartlashtirish usulida baholang va ularni taqqoslang. Standart asosida ikki davrdagi ishchilar sonini yig'indisining yarmini oling.

Jinsi	Birinchi davr		Ikkinchi davr	
erkaklar	600	72	300	38
Ayollar	300	20	400	28
Jami:	900	92	700	66

Variant 8.

N zavodining asosiy va yordamchi sexida tez-tez va uzok muddat kasal bo'luvchilar sonini standartlashtirish usulida baholang va to'g'ri xulosa chiqaring. Standart asosida ikki sex ishchilari yig'indisining yarmini oling.

Yoshlari	Asosiy tsex		Yordamchi tsex	
	Ishchilar soni	Ulardan tez-tez kasal bo'luvchilar	Ishchilar soni	Ulardan tez-tez kasal bo'luvchilar
20 – 29	200	21	100	5
30 – 39	150	25	300	45
40 va yuqori	50	10	200	40
Jami	400	56	600	90

Variant 9.

Turli tuman aholisi orasida gipertonik kasalligi tarqalishini standartlashtirish usulida baholang va uni oddiy usulda aniqlangan ko'rsatkich bilan solishtiring xamda to'g'ri xulosa chiqaring. Standart asosida ko'rikdan utgan aholi soni yig'indisini oling (jinsi bo'yicha).

Jinsi	A tumani		B tumani	
	Bemorlar soni	Tekshirilganlar	Bemorlar soni	Tekshirilganlar
erkaklar	1000	15	500	8
Ayollar	400	24	900	55
Jami:	1400	39	1400	63

Variant 10.

A va B kasalxonalarda ichak kasalligi (ichak burilishi) sababli letallik ko'rsatkichini standartlashtirish usulida aniqlang va uni intensiv ko'rsatkich bilan solishtiring xamda to'g'ri xulosa chiqaring. Standart asosida kasalligi boshlangandan kasalxonaga yotqizilguncha bo'lgan vaqtga xato ikki kasalxona bemorlari sonining yig'indisini oling.

Kasallik boshlangandan to kasalxonaga yotqizilgan vaqt	A kasalxona		B kasalxona	
	Bemorlar soni	Ulardan o'lganlar	Bemorlar soni	Ulardan o'lganlar
6 soat ichida	215	37	273	49
6 soatdan 24 soatgacha	170	20	350	42
24 soatdan keyin	418	116	104	30
Jami:	803	173	727	121

Variant 11.

Turli kasalxonaga gospitalizatsiya qilingan vaqtiga xato appenditsitdan yuzaga kelgan letallik ko'rsatkichini standartlashtirish usulida baholang va ularni oddiy usulda aniqlangan ko'rsatkich bilan taqqoslang xamda to'g'ri xulosa chiqaring. Standart asosida №1 kasalxonadagi bemorlar sonini oling (gospitalizatsiya qilinish muddatiga xato).

Gospitalizatsiya qilish muddati (kunlarda)	Kasalxona № 1		Kasalxona № 2	
	Bemorlar soni	Ulardan o'lganlar	Bemorlar soni	Ulardan o'lganlar
1 – 2	500	3	400	2
3 – 4	100	2	150	3
5 – 6	100	5	50	2
Jami:	700	10	600	7

Variant 12.

Ikki avtobaza xaydovchilarida uchraydigan radikulit kasalligini standartlashtirish usulida baholang va uni intensiv ko'rsatkich bilan solishtiring. Standart asosida ikki avtobuz shofyorlarning ish staji bo'yicha umumiy sonini oling.

Ish staji (yillarda)	Avtobaza № 1		Avtobaza № 2	
	Xaydovchilar soni	Radikulit kaslliklari soni	Xaydovchilar soni	Radikulit kaslliklari soni
1 yilgacha	100	4	300	10
1 - 3 yil	200	12	200	12
3 – 8 yil	300	25	100	8
Jami:	600	41	600	30

1.7. BELGILAR ORASIDAGI BOLIQLIKNI O'RGANISH, KORRELYATSIYA VA REGRESSIYA

Korrelyatsiya – bu lotincha so'z bo'lib aloqadorlik, bog'liqlik degan ma'noni anglatadi. hodisa va belgilar orasidagi bog'lanish funktsional xamda korrelyatsion bo'ladi.

Funktsional bog'lanish – hodisalar o'rtasidagi kat'iy boglanishdir: bir hodisaning o'zgarishi u bilan bog'liq ikkinchi hodisani ma'lum bir kattalikda o'zgarishiga olib keladi. Masalan: aylanani radiusi o'zgarsa, maydoni xam o'zgaradi.

Korrelyatsion boglanish – o'rganilgan belgining ma'lum bir kattaligiga u bilan bog'liq ikkinchi belgining bir necha kattaliklarini mos kelishidir. Tana og'irligi va bo'y uzunligi bog'liqligi korrelyatsion boglanishga misol bo'la oladi. Agarda bir xil bo'ylik bolalarni tana vaznini o'lchasak u xar xil va ma'lum bir chegara ichida bo'lishi mumkin, chunki tana vazniga faqat bo'yi emas balki ovkatlanish, sog'liq va asab-ruxiy holat xam ta'sir etadi.

Statistikada korrelyatsiya koeffitsientni aniqlashning bir necha usullari mavjud bo'lib, ularga kiradi:

1. Rang (Spirmen) usuli
2. Kvadrat (Pirson) usuli

Spirmen usuli hodisalar orasidagi bog'liqni aniqlashning oddiy usuli bo'lib, quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- juftliklar soni 30 kam bo'lganda;
- bog'liqliklar aniq kuchini aniqlash zaruriyati bo'lmaganda;
- belgilar xam sifat, xam miqdoriy xarakterga ega bo'lganda ishlatiladi.

Bunda korrelyatsiya koeffitsienti quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$R = 1 - 6 \sum d^2 / n(n-1)$$

Masalan: eshitish qobiliyati va tikuvchilarning ish stajini uzviy bog'liqligini kuchi va xarakterini aniqlash.

Ish staji (X)	eshitishning pastligi 100%	Tartib ragami		Tartib ragamlari farqi	
		X	Y	d (X-Y)	d ²
1 yoshgacha	1,0	1	1	0	0
1 – 4 yosh	6,0	2	2	0	0
5 – 9 yosh	10,0	3	4	- 1	1
10 – 14 yosh	8,0	4	3	+1	1
15 – 19 yosh	15,0	5	6	- 1	1

20 – 24 yosh	12,0	6	5	+1	1
25 – 29 yosh	15,0	7	6	+1	1
30 va undan yukori	20,0	8	7	0	0
Jami					5

Ranglar ketma-ketlikda joylashtirishni kamayishi yoki ko'payishi bo'yicha qilinadi. $d = X - U$ ranglar farqi:

Korrelyatsiya ko'effitsientini topamiz:

$$R = 1 - 6 \sum d^2 / n(n^2 - 1)$$

$$R = 1 - 6 \times 5 / 8 \times (64 - 1) = 1 - 30 / 504 = 1 - 0,06 = +0,94$$

Xulosa: korrelyatsiya ko'effitsienti (+0,94) teng bo'lganda to'qri, kuchli boqlanishi desa bo'ladi. Tikuvchilar staji oshib borishi bilan ularning eshitish qobiliyatini pasayish ko'rsatkichi oshib boradi.

Kvadrat yoki Pirson usuli quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- juftliklar soni 30 kam bo'lganda;
- bog'liqliklar aniq kuchini aniqlashda;
- belgilar faqat miqdoriy bo'lganda ishlatiladi.

Pirson usuli bo'yicha korrelyatsiya ko'effitsienti quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$r = \sum dx \times dy / \sqrt{\sum dx^2 \times \sum dy^2}$$

Masalan: 25-45 yoshgacha bo'lgan kishilarni minimal va maksimal arterial bosimini bog'lanish kuchini va xarakterini aniqlash:

Maksimal bosim (X)	Minimal bosim (Y)	d_x	d_y	d_x^2	d_y^2	$d_x \times d_y$
126	76	-5	-18	25	324	+90
126	81	-5	-13	25	169	+65
129	81	-2	-13	4	169	+26
126	94	-5	+0	25	0	0
136	96	+5	+2	25	4	+10
136	101	+5	+7	25	49	+35
136	101	+5	+7	25	49	+35
130	102	-1	+8	1	64	-8

131	102	0	+8	0	64	0
135	104	+4	+10	16	100	+40
1311	938			171	992	+293

$$n = 10$$

1. Hisoblash ketma-ketligi X va Y, variatsion qator uchun oddiy o'rtacha arifmetik sonini topamiz: M_x va M_y

$M_x = X$ variatsion qator sonini yig'indisi / kuzatuvlar soni

$M_x = E V_x / n$, t.e. $M_x = 1311 / 10 = 131,1$; yoki 131 qilib olsak bo'ladi.

$M_y = Y$ variatsion qatorining sonlari yig'indisi / ko'rsatuvlar soni ;

$M_y = E V_y / n$, t.e. $M_y = 938 / 10 = 93,8$; yoki 94 qilib olsak bo'ladi;

2. Formula yordamida d oqishini aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} dx &= V_x - M_x; \quad dy = V_y - M_y \\ d &= 126 - 131,1 = -5,1. \end{aligned}$$

3. O'qish sonini kvadratini olamiz

4. Kvadratlar yig'indisini topamiz

5. O'qishlar ko'paytmasini topamiz

6. Korrelyatsiya ko'effitsientini topamiz.

$$r = +293 / \sqrt{171 \times 992} = +0,71$$

Xulosa: maksimal va minimal arterial bosimlar o'rtasida to'g'ri kuchlik bog'lanish, chunki korrelyatsiya ko'effitsienti +0,71.

Olingan natijani tanlama va aralash tatqiqotlar orasidagi farqni aniqlash uchun korrelyatsiya ko'effitsientining xatoligini hisoblaymiz (m_r)

$$m_r = \sqrt{1 - r^2} / n - 2$$

Bizning misolimiz uchun : $m_r = \sqrt{1 - (0,71)^2} / 10 - 2 = 0,25$

Shunday qilib, korrelyatsiya ko'effitsienti uzviy bog'lanishni yo'nalishini va kuchini ko'rsatadi.

REGRESSIYA

REGRESSIYA – bu bir belgi o'zgarishi bilan unga bog'liq ikkinchi belgi o'rtacha qancha miqdorga o'zgarishini ifodalaydi.

Regressiya koeffitsienti quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$R = r \times G_y / G_x;$$

G – belgilarning o'rtacha kvadratik oqish

r – korrelyatsiya koeffitsienti

Oldingi misol asosida G topamiz. Jadvalda oddiy variatsion qator tuzilgan, shuning uchun o'rtacha kvadratik oqishni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$G = \text{SQR} (E d^2 / n - 1)$, kuzatuvlar soni 30 kam bo'lgani uchun, maxrajda 1 soni o'rniga $n - 1$ tuzatish kiritilgan.

$$G_x = \text{SQR} (171 / 10 - 1) = \pm 4,4 \quad G_y = \text{SQR} (992 / 10 - 1) = \pm 10,5$$

$$\text{Endi} \quad R = 0,71 \times 10,5 / 4,4 = 1,7$$

Shunday qilib, maksimal arterial bosimni 1mm. rt. st. o'zgarsa minimal bosim o'rtacha 1,7 mm. rt. st. ko'payadi.

MASALALAR:

Variant 1

Berilgan: 20 yoshli talabalarining bo'y uzunligi va tana vazni

1) Korrelyatsiya koeffitsientini hisoblang va ularni yo'nalishi, kuchini aniqlang xamda ko'rsatkichni ishonchliligini baholang

2) Regressiya koeffitsientini va bo'y uzunligi 166 sm bo'lgandagi o'rtacha tana vaznini aniqlang

Bo'y uzunligi / sm // X : 157, 158, 160, 165, 167, 170, 174, 176, 170, 180

Tana vazni / kg // U : 56, 55, 57, 57, 58, 60, 63, 65, 72, 79, 82

Variant 2

Berilgan: yangi tug'ilgan chaqaloqlarning bo'y uzunligi va tana vazni

1) Korrelyatsiya koeffitsientini hisoblang va ularni yo'nalishi, kuchini aniqlang xamda ko'rsatkichni ishonchliligini baholang

2) Regressiya koeffitsientini va chaqaloqlarning bo'y uzunligi 40 sm bo'lgandagi o'rtacha tana vaznini aniqlang

Bo'y o'zunligi / sm / X / 35, 48, 52, 50, 47, 53, 52, 50, 51, 54

Tana vazni /kg/ U / 4,5; 3,6 ; 4,1; 4,0; 3,2; 3,8; 3,9; 3,9; 4,0; 4,3

Variant 3

Berilgan: ish kuni davomida issik tsexdagi ishchilarning tomir urushi

1) Korrelyatsiya koeffitsientini hisoblang va ularni yo'nalishi, kuchini aniqlang xamda ko'rsatkichni ishonchliligini baholang

2) Regressiya koeffitsientini va ishchilarning t q 350 S bo'lgandagi o'rtacha tomir urushini aniqlang

Havo xarorati. X / 18, 20, 22, 24, 26, 28, 30, 32, 34

Tomir urushi U / 76, 78, 75, 75, 78, 79, 77, 80, 82

Variant 4

Berilgan: turli tumanlarda qo'llaniladigan yod miqdori va endemik buqoq kasalligining uchrash darajasi

Korrelyatsiya koeffitsientini hisoblang va ularni yo'nalishi, kuchini aniqlang xamda ko'rsatkichni ishonchliligini baholang

Tumanlar: A, B, V, G, D

Qo'llanilayotgan yod miqdori (X) 120, 100, 80, 50, 30

Kasallanish darajasi % da (U) 1,5; 3,2; 1,5; 15,0; 18,5

Variant 5

Berilgan: paxta tozalash tsexidagi ishchilar orasida ish stajiga xavo nafas sistemasi kasalliklarining tarqalish darajasi

Korrelyatsiya koeffitsientini hisoblang va ularni yo'nalishi, kuchini aniqlang xamda ko'rsatkichni ishonchliligini baholang

Ish staji X / 1y.; 1 - 4y; 5-9 y; 10-14 y; 15-19 y; 20 va yukori

Kasallanish darajasi %da U / 4,5; 9,6; 7,5; 12,3; 18,9; 17,5

Variant 6

Berilgan: havodagi chang miqdori va ishchilar orasidagi surunkali bronxit kasalligini tarqalish darajasi

Korrelyatsiya koeffitsientini hisoblang va ularni yo'nalishi, kuchini aniqlang xamda ko'rsatkichni ishonchliligini baholang

Chang miqdori (mg/m^3) X / 226, 217, 180, 155, 75, 75

Kasallanish darajasi % da U / 10,6; 11,0; 8,0; 4,0; 4,0; 2,0

Variant 7

Berilgan: suvdagi ftor miqdori va flyuoroz kasalligining tarqalish darajasi
Korrelyatsiya koeffitsientini hisoblang va ularni yo'nalishi, kuchini aniqlang
xamda ko'rsatkichni ishonchliligini baholang

Suvdagi ftor miqdori (X) 0,7gacha ; 0,8 – 1,0; 1,1 – 1,5; 1,6-2,0; 2,0 dan
yuqori

Flyuorozni tarqalish darajasi %da (U) 0,66; 11,4; 6,6; 30,6; 64,4

Variant 8

Berilgan: 18 yoshli sog'lom bolalarning sistolik va diastolik bosimlari
(mm.sim.ust.da)

1) Korrelyatsiya koeffitsientini hisoblang va ularni yo'nalishi, kuchini
aniqlang xamda ko'rsatkichni ishonchliligini baholang

2) Regressiya koeffitsientini va maksimal bosim 130 mm.sim.ust. bo'lgandagi
minimal qon bosimini aniqlang.

Sistolik bosim /max/ /X/ 105, 115, 115, 110, 110, 120, 120, 125, 110, 125,
120

Diastolik bosim /min/ /U/ 65, 70, 65, 65, 70, 75, 75, 70, 75, 70, 80, 80

Variant 9

Berilgan: xoletsistit ko'zg'agan davrdan operatsiya qilingunga qadar vaqt va
operatsiyadan keyingi asoratlari

Korrelyatsiya koeffitsientini hisoblang va ularni yo'nalishi, kuchini aniqlang
xamda ko'rsatkichni ishonchliligini baholang

Vaqt (soatda) /X/ 3 soatgacha; 3-5; 6-8; 9-11; 12-14; 15-17; 18-20; 21-23;
24 va^

Asoratlari darajasi %da /U/ 6, 8, 7, 12, 16, 15, 20, 22, 24

Variant 10

Berilgan: 6 yoshli qiz bolalarning bo'y uzunligi va tana vazni

1) Korrelyatsiya koeffitsientini hisoblang va ularni yo'nalishi, kuchini
aniqlang xamda ko'rsatkichni ishonchliligini baholang

2) Regressiya koeffitsientini va bo'y o'zunligi 96 sm bo'lgandagi o'rtacha tana
vaznini aniqlang

Bo'y uzunligi sm /X/ 95, 93, 108, 106, 101, 110, 105, 107, 112

Tana vazni kg /U/ 15, 14, 15, 19, 16, 15, 16, 15, 17, 21*

**Tibbiy statistika bo'limidan xar bir talaba mustaqil ishni
bajargandan so'ng o'zlashtirib olishi zarur bo'lgan savollar:**

1. Statistik usul – aholi salomatligini mustaxkamlashda va sog'liqni saqlash tizimi muassasalari faoliyatini o'rganishda asosiy usullardan biri.
2. Statistik tatqiqot bosqichlari.
3. Tatqiqot maqsadi va vazifalarini ishlab chiqishdagi talablar.
4. Ma'lumot yiqishda kuzatuv ro'znomasini tuzish (hisob xujjatlari va ularning turlari).
5. Ma'lumotlarni tahlil qilish dasturini tuzish (statistik jadvalar), statistik jadval turlari
6. Tanlab olingan majmuada kuzatuv birliklari hajmini aniqlash
7. Statistik jadvallarni yig'ish va ularni ishlab chiqish tartibi
8. Statistik tahlil olib borish uchun yaratiladigan sharoitlar
9. Statistik taqlil elementlari
10. Statistik majmua va uning turlari.
11. Statistik miqdorlar – absolyut va nisbiy miqdorlar
12. Nisbiy miqdorlar turlari va ularni hisoblash
13. Dinamik qator va uni tahlil qilish ko'rsatkichlari
14. Variatsion qator ta'rifi, variatsion qator elementlari va uning turlari
15. Guruqlashgan variatsion qatorni tuzish tartibi
16. O'rtacha miqdorlar va ularni vrach amaliyotida qo'llanilishi
17. O'rtacha miqdor turlari va ularni hisoblash usullari. O'rtacha miqdorlarning o'ziga xos xususiyatlari
18. «Ishonchlilik» tushunchasi ta'rifi. Ishonchlilik mezon – o'rtacha miqdorning vakillik xatosi, $n \geq 30$ va $n < 30$ bo'lganda uni hisoblash usuli.
19. O'rtacha va nisbiy miqdorlarning ishonchlilik chegarasi, ularni $n = 30$ va $p > 30$ da hisoblash. Turli majmualar ko'rsatkichlar ayirmasini ishonchliligini aniqlash
20. Grafik tasvirlar.
21. Standartlashtirilgan usul moxiyati va uning usullari. Standartlashtirilgan ko'rsatkichni to'g'ri usulda hisoblash tartibi.
22. Statistik taqlilda uchraydigan xatoliklar

II. AHOLI SALOMATLIGINI BELGILOVCHI KO'RSATKICHLAR

«Aholi salomatligi ko'rsatkichlari» bo'limida amaliy mashg'ulotlarda demografiya, kasallanish, jismoniy rivojlanganlik va ular ko'rsatkichlarini hisoblash xamda tahlil qilish usullari o'rganiladi. Mashg'ulot avval kafedrada olib boriladi. Bunda demografiya va kasallanish bo'yicha mavzular tushuntirib beriladi. so'ngra talabalar kafedrada va uyda situatsion masalalar yechadilar tug'ilish, o'lim, bolalar o'limi, kasallanish ko'rsatkichlarini hisoblaydilar,xamda tahlil qiladilar.

Talaba amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlardan so'ng o'zlashtirib olishlari lozim:

- Aholi salomatligi ko'rsatkichlari
- Tug'ilish ko'rsatkichi, o'lim ko'rsatkichlarini hisoblash .
- Bolalar o'limi, go'daklar o'limi, perinatal o'limni hisoblash va ularni tahlil qilish
- Umumiy kasallanish, birlamchi kasallanish ko'rsatkichini hisoblash va tahlil qilish

Talaba bajaradigan mustaqil ishining bitta mashg'uloti biror tumandagi aholi salomatlik holatini baholashga karatilgan bo'lishi kerak.

2.1 DEMOGRAFIYA.

a) tumandagi tug'ilish ko'rsatkichi:

$$\frac{\text{vil davomida tirik tug'ilganlarning umumiy soni} \times 1000}{\text{aholining o'rtacha soni}}$$

b) tumandagi o'lim ko'rsatkichi:

$$\frac{\text{vil davomida o'lganlarning umumiy soni} \times 1000}{\text{aholining o'rtacha soni}}$$

v) tabiiy ko'payish:

$$\frac{(\text{tug'ilganlar soni} - \text{o'lganlar soni}) \times 1000}{\text{aholining o'rtacha soni}}$$

yoki

$$\text{tug'ilish ko'rsatkichi} - \text{o'lim ko'rsatkichi}$$

g) go'daklar o'limi:

$$\frac{\text{Xayotining 1 yilida o'lgan bolalar soni} \times 1000}{\text{Tirik tug'ilganlar soni}}$$

Rats bo'yicha:

$$\frac{\text{xayotining 1 yilida o'lganlar bolalar soni} \times 1000}{\text{ushbu yilda tug'ilganlar } 2/3 \text{ qismi} + \text{o'tgan yilda tug'ilganlar } 1/3 \text{ qismi}}$$

d) neonatal o'lim ko'rsatkichi :

$$\frac{\text{xayotining 1 ovida o'lganlar} \times 1000}{\text{tirik tug'ilganlar soni}}$$

e) erta neonatal o'lim ko'rsatkichi :

$$\frac{\text{o'lik tug'ilganlar va xayotining 1 ovida o'lganlar} \times 1000}{\text{tirik va o'lik tug'ilganlar soni}}$$

j) perinatal o'lim ko'rsatkichi:

$$\frac{\text{o'lik tug'ilganlar} + \text{xayotining 1 haftasida o'lganlar} \times 1000}{\text{o'lik va tirik tug'ilganlar soni}}$$

Aholi salomatligini belgilovchi ko'rsatkichlarini hisoblash uchun kerakli ma'lumotlar №1,2,3 jadvallarda berilgan.

2.2 KASALLANISH

Kasalanishning bir qancha turlari mavjud bo'lib, bo'lar umumiy kasallanish, birlamchi kasallanish, nozologik turlariga xato kasallanishlar ko'rsatkichlari, jumladan 0-14 yoshdagi bolalar kasalliklari, xamda 1 yosh, 2 yosh va 3 yoshli bolalar kasalliklari ko'rsatkichlaridir.

a) umumiy kasallanish:

$$\frac{\text{yil davomida qayd qilingan barcha kasalliklar soni} \times 1000}{\text{aholining o'rtacha soni}}$$

b) birlamchi kasallanish:

$$\frac{\text{ushbu yilda yangi paydo bo'lgan kasalliklar soni} \times 1000}{\text{aholining o'rtacha soni}}$$

v) patologik zararlanish ko'rsatkichi:

$$\frac{\text{tibbiy kuriklarda aniqlangan kasalliklar soni} \times 1000}{\text{tibbiy ko'rikdan o'tganlar soni}}$$

g) maishiy shikastlanish ko'rsatkichi:

$$\frac{\text{turmushda olingan shikastlar soni} \times 1000}{\text{aholining o'rtacha soni}}$$

2.3 JISMONIY RIVOJLANGANLIK

Jismoniy rivojlanganlik aholi salomatligi darajasini belgilovchi ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy rivojlanish deganda vazn, qomati va uning tarkibiy – mexanik sifatini belgilovchi organizmning morfologik va funktsional kompleksi tushuniladi.

Jismoniy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlariga kiradi:

- antropometrik-

- 1) somatometrik – butun tana va uning bo'limlari uzunliklari
- 2) osteometrik – skelet va uning qismlari o'lchovi
- 3) kraniometrik – bosh kalla suyagi o'lchami

Demografiya, kasallnsh va jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha mustaqil ishini bajarib bo'lgan talaba referat yozishi lozim. Referatda talaba mustaqil ishiga tayangan holda xulosalar keltirish va aholi salomatligini mustaxkamlash uchun o'z tavsiyalarini bayon etishi kerak.

Jadval № 2

Aholi salomatligi ko'rsatkichlarini hisoblash uchun ma'lumotlar

№	Vilo yat, tuman	Aholining o'rtacha soni	Tug'ilgan lar soni		O'lganlar soni	Xayotining birinchi yilida o'lgan bolalar soni	Xayotining birinchi oyida o'lgan bolalar soni	Xayotining birinchi haftasida o'lgan bolalar soni	Ulik tug'ilgan bolalar soni
			Ushbu yil da	Ut gan yil da					
	1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	A	118700	2646	2889	1068	66	39	38	19
2	B	133300	3859	3979	1128	99	51	49	36
3	V	80300	2444	2413	797	89	36	30	29
4	G	159900	3575	3543	1172	94	49	48	23
5	D	70900	1871	1734	771	57	22	20	19
6	E	25000	583	635	274	27	9	8	7
7	I	71600	2591	2715	739	120	41	45	17
8	K	85100	3071	3194	772	138	50	52	19
9	L	92100	3962	3856	846	142	61	56	36
10	M	121400	4106	3852	1038	148	57	61	29
11	N	75700	3462	3393	853	144	52	54	21
12	Jami:	1033900	32150	32203	9458	1121	467	461	255

Kasallanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun ma'lumotl

№	Vilo yat, tuman	Aholining o'rtacha soni	Tug'ilganlar soni		O'lganlar soni	Xayotining birinchi yilida o'lgan bolalar soni	Xayotining birinchi oyida o'lgan bolalar son	Xayotining birinchi xaftasida o'lgan bolalar soni	Ulik tu g'ilganlar soni
			O'tgan yilda	Ushbu yilda					
	10	11	12	13	14	15	16	17	18
1	A	239500	5119	4960	1742	118	65	39	46
2	B	272200	5560	5655	1904	155	71	36	60
3	V	287700	5107	5112	2204	166	65	51	50
4	G	159400	2771	2547	1563	69	38	32	41
5	D	261500	5763	5645	1390	143	80	39	68
6	E	270400	6629	6390	1821	263	100	77	87
7	I	112500	2113	2568	765	65	22	18	26
8	K	141900	2471	2309	1071	65	29	22	20
9	L	252900	4739	4353	1549	87	69	29	26
10	M	261500	4673	4774	1936	103	65	39	53
11	Jami	2259500	44945	44313	15936	1234	604	382	477

III. SOGLIQNI SAQLASHNI TASHKILLASHTIRISH

3.1 Sogliqni saqlash tizimini rejalashtirish va moliyalashtirish

Ushbu mavzu bo'yicha talabalarga amaliy mashg'ulot va mustaqil ishlar davolash-profilaktika muassasalar faoliyatidagi reja-moliya bo'limlari ma'lumotlari asosida tashkil etiladi. Kafedrada sog'liqni saqlash tizimini rejalashtirish va moliyalashtirishning asoslari muxokama qilinadi. Talabalarga kasalxona o'rinlarini jumladan, bolalar kasalxonasi, ayollar tug'ruqxonasiga o'rinlarni taqsimlash, shifokor va o'rta tibbiy xodimlar shtatlarini taqsimlash, bolalar davolash-profilaktika muassasalari, kasalxona va poliklinikalarga kerakli jixozlar, anjomlar va dori-darmonlar extiyojini aniqlash o'rgatiladi. Sog'liqni saqlash tizimini rejalashtirishning 4 bosqichi o'rgatiladi:

1 bosqich – ushbu hisobot yilida xizmat ko'rsatilayotgan aholi salomatlik holati xamda tibbiy muassasalarning material-texnik bazasi holati o'rganiladi;

2 bosqich – tibbiy muassasalarning kelgusi yilga vazifalarini belgilash olib boriladi;

3 bosqich – tibbiy muassasalarning rejalashtirilgan yilga kerakli material-texnik bazasi hisobi olib boriladi;

4 bosqich – rejani tasdiqlash bilan bog'liq nizomlar o'rganiladi.

So'ngra talaba rejalashtirish va moliyalashtirish bo'yicha mustaqil ish olib boradi. Buning uchun ular yillik shtat birliklari, maosh fondlari, rejalashtirilgan o'rinlar soni belgilangan jadvallardan foydalanadilar.

Shu qatorda talabalar o'rinlarning o'rtacha yillik bandligi ko'rsatkichi, davolash-profilaktika muassasalar faoliyati ko'rsatkichlarini hisoblaydilar va erishilgan natijalar asosida kasalxona smetasini ishlab chiqadilar:

- oylik ish maoshi
- oylik maoshga ajratiladigan ish xaqi
- ozik-ovkatga ketadigan xarajat
- dori-darmonlarga sarflanadigan xarajat
- yumshok inventarlar olishga sarflanadigan xarajatlar va x.k.

Bundan tashqari yil davomila bitta o'ringa sarflanadigan harajat (%da) aniqlanadi. Ayniqsa bolalar muassasalarida 3 yoshgacha bo'lgan bolalarni bepul davolanish uchun kerakli dori-darmonlarga va 1 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun sut maksulotlariga sarflanadigan xarajatlar hisoblab topiladi.

Talabalar quyidagi ko'rsatkichlarni mustaqil tahlil kiladilar:
Tuman aholisini kasalxona o'rinlari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi:

$$\frac{\text{o'rinlarning o'rtacha soni} \times 10000}{\text{aholining o'rtacha soni}}$$

Tumanda bolalarini kasalxona o'rinlari bilan ta'minlash:

bolalar o'rinlari soni x 10000

bolalarning o'rtacha soni

Ixtisoslashtirilgan o'rinlar bilan bolalarni ta'minlash:

ixtisoslashtirilgan o'rinlar soni x 10000

bolalarning o'rtacha soni

Ixtisoslashtirilgan o'rinlarning ulushi:

yil davomida poliklinika qatnovlari soni x 100

bolalar umumiy o'rinlari soni

Bolalar poliklinikasi kategoriyasi

yil davomida poliklinika qatnovlari soni

bolalarning o'rtacha soni

Tuman aholisini vrachlar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi:

vrachlar soni x 10000

aholining o'rtacha soni

Vrach-pediatrlar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi

vrach-pediatrlar soni x 10000

bolalarning umumiy soni

Vrach-pediatrlarning umumiy soni:

vrach-pediatrlar soni x 100

umumiy vrachlar soni

Tuman aholisini ambulator-poliklinikasi yordami bilan ta'minlanganligi

ambulator-poliklinika yordamiga muxtoj katnotnovlari soni

tumandagi aholining o'rtacha soni

Mashg'ulot yakunida talabalar aholini:

a) kasalxona o'rinlariga

v) tug'ruqxona o'rinlariga

b) bolalar o'rinlariga.

g) vrach lavozimiga

bo'lgan extiyojlarini hisoblaydilar, buning uchun talabalar turli ambulator-poliklinika muassasalari hisobotlari keltirilgan jadvaldan foydalanadilar (jadval №4).

Davolash-profilaktika muassasalarning taxminiy qisobot natijalar

№	Xizmat turlari	Rayon A	Rayon B	Rayon V	Rayon G	Rayon D	Rayon J
	1	2	3	4	5	6	7
1	Umumiy aqoli soni	92600	76300	81930	48340	71280	112300
2	Jumladan 0-14 yoshdagilar	35540	26420	31180	19840	28110	42750
3	Umumiy kasalxona o'rinlari soni	1040	800	850	520	670	1400
4	Terapevtik	320	280	300	190	265	440
5	Jarroxlik	180	200	190	90	100	300
6	Yukumli kasalliklar	140	100	120	80	70	250
7	Pediatrik	120	90	100	60	75	210
8	Tugruqxona	280	130	140	100	160	200
9	Kasalxonaga yotqizilgan bemorlar	21354	16747	16954	10163	13885	28296
10	O'tkazilgan o'rin-kunlar	369092	292110	304360	173490	222600	48370
11	Ambulator-poliklinika muassasalariga qilingan tashriflar	1048910	719830	876630	602450	802760	1224650
12	Jumladan, tibbiy kurik sababli	426930	239550	284410	231730	319200	438790
13	Umumiy vrachlar	312	248	306	164	220	386
14	Vrach-pediatrlar	54	35	47	25	29	69
15	Tor mutaxassislar	37	19	25	13	29	41
16	Uchastka vrach-pediatrlari	40	28	35	18	23	45
17	Umumiy kasalliklar	84700	913	1015	727	684	1214
18	Tug'ilish ko'rsatkichi	32	35	28	36	41	24
19	Markaziy tuman birlashmasi byudjeti (sumda)	728640	624850	735180	412480	645150	856520

№	Rayon Z	Rayon I	Rayon K	Rayon L	Rayon M	Jami
	8	9	10	11	12	13
1	85600	67240	54310	70280	128640	888820
2	36140	25780	20350	27410	42980	336500
3	910	702	500	820	1520	9732
4	410	280	160	320	580	3545
5	160	140	90	120	250	1820
6	100	90	90	120	200	1360
7	90	72	60	80	200	1157
8	150	120	100	180	290	1850
9	17184	13528	10354	15647	31431	195543
10	30690	24746	167810	26670	55830	1717568
11	915760	658400	617270	846460	1447670	9760790
12	347810	216970	258230	271530	474920	3509970
13	273	205	158	234	484	2990
14	32	25	17	28	76	437
15	29	22	10	26	47	298
16	26	20	12	20	61	328
17	948	745	891	613	1037	9661
18	34	29	35	32	25	351
19	584600	491500	389560	768420	915710	7152610

Aholi salomatligi ko'rsatkichlari bo'limidan xar bir talaba mustaqil ishni bajargandan so'ng o'zlashtirib olishi zarur bo'lgan savollar:

1. Sog'liqni saqlash tizimini rejalashtirish vazifalari va usullari
2. Sog'liqni saqlash tizimi rejalari turlari
3. Ambulator-poliklinika va statsionar yordamini rejalashtirish uslubi
4. Kasalxona smetasi, uni tuzish tartibi xamda sarflanadigan xarajatlarni ishlab chiqish
5. Xarajat turlari. Zarur va zaruriy bo'lmagan xarajat me'yorlari

Referatda talaba olingan natijalar asosida xulosa keltirishi va tavsiyalar ishlab chiqishi kerak.

3.2 BOLALARGA AMBULATOR-POLIKLINIKA YORDAMINI TASHKILLSHTIRISH

(O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining 30.03.07y. 145-sonli «Bolalarga sog'liqni saqlash tizimining birlamchi buginida ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirishda yangi texnologiyalarni kiritish» nomli buyrugiga asosan)

Bolalarga ambulatoriya-poliklinika xizmatini tashkillashtirish mavzusi talabalarga kafedrada xamda oilaviy poliklinikaning bolalar bo'limii, bolalar poliklinikasi bazasida urgatiladi. Mavzu poliklinikaning vazifalari va uning tarkibiy tuzilishlarini tushuntirishdan boshlanadi. So'ngra talabalarga ro'yxatxona vazifalari va turlari, uchastka pediatrialari yoki umumiy amaliyot shifokorining vazifalari, pediatriya bo'limi boshligi va o'rta tibbiy xodimlari, emlash xonasi, sog'lom bola xonasi, sog'lomlashtiruvchi xonasi xodimlari vazifalari tushuntirib beriladi, bunda profilaktika va dispanserizatsiya ishlari, tibbiy xujjatlarni yurgizish, hisob-kitoblarni kanday bajarish ishlariga keng axamiyat berib o'tiladi.

Mustaqil ish bajarish uchun talabalar ro'yxatxona xodimi, umumamaliyot shifokori, sog'lom bola xonasi, emlash xonasi va boshqa xonalar xodimlarining vazifalarini chuqur o'rganib chiqishlari lozim. Amaliyot davrida talabalar hisob-kitob xujjatlari bilan tanishadilar va ularni to'ldirishni o'rganadilar. So'ngra bolalarning tibbiy kartasi, statistik talon, shifokor kundaligi va shu kabi xujjatlar bilan ishlashni o'rganadilar. Talabalar bir qator ko'rsatkichlarga qo'llanma beradilar va ularni tahlil qiladilar. Undan tashqari bolalarning emlash kartasini o'rganadilar, dispanserizatsiya samaradorligini, o'lim ko'rsatkichi, ayniqsa xayotining birinchi yilida sodir bo'ladigan o'lim ko'rsatkichlarini tahlil qiladilar. Bolalarning tibbiy kartasiga

asosan ko'p uchraydigan kasalliklarni o'rganadilar, statistik talon orqali bolalar kasalliklari va o'limini, uning sabablarini o'rganadilar xamda yoshga xato bolalarning salomatlik holatiga tafsia beradilar va profilaktik tadbirlar ishlab chiqish yo'llarini izlab topishga xarakat qiladilar.

Talabalar amaliy mashg'ulotda bolalar poliklinikasi bo'yicha quyidagi tibbiy xujjatlar bilan tanishib chiqishlari lozim:

1. Tibbiy xujjatlar (O'zbekiston Respublikasi SSVning 26.06.2006y. 287 sonli buyrug'iga asosan tsdiqlangan)

- bolalarning tibbiy kartasi – forma № 026/u
- bolaning rivojlanish tarixi – 112/u
- dispanser kuzatuvining nazorat kartasi – 030/u
- profilaktik emlash kartasi – 063/u
- vrach kabo'liga talon – 025-4/u
- uyga chakiruv jurnali – 031/u
- bolalarning sanatoriya - kurort kartasi – 076/u
- bolalar sanatoriyasiga yo'llanma – 077/u
- yozgi sog'lomlashtiruv oromgoxiga borayotgan maktab o'quvchisi uchun tibbiy ma'lumotnoma – 079/u
- 16 yoshga qadar bolalikdan nogironligi xaqidagi tibbiy xulosa - 080/u
- yakuniy tashxislarni qayd qiluvchi statistik talon – 025-2/u
- poliklinika shifokorining kundalik daftarchasi – 039/u
- poliklinika o'rta tibbiy xodimining kundalik daftarchasi - 039-1/u
- ambulator bemorning tibbiy kartasidan ko'chirma – 027/u
- yuqumli kasallik xaqida shoshilinch xabarnoma – 058/u
- yuqumli kasalliklarni qayd qilish jurnali – 060/u
- VKK xulosalarini qayd qilish jurnali – 035/u
- kasallik varaqasini qayd qilish jurnali – 036/u
- sanitar-oqartuv ishlarini olib borish jurnali – 038-0/u
- tug'ilganlik xaqida tibbiy guvoxnoma – 103/u-84
- o'lim xaqida vrach guvoxnomasi – 106/u-84
- bolalar retsepti – 107/u
- bepul retsept – 108/u

2. hisob-kitob xujjatlari:

- davolash-profilaktika muassasalarining hisoboti №1 forma – tuman sog'liqni saqlash tizimi muassasasiga topshiriladi.
- jaroxatlanishlar, zaxarlanishlar xaqidagi hisobot №7 forma - tuman (shahar) sog'liqni saqlash tizimi muassasasiga topshiriladi.
- gripp va boshqa o'tkir respirator kasalliklari xaqidagi hisobot - №85 forma – axborot tumandagi SZN markaziga topshiriladi.
- profilaktik emlashlar xaqidagi hisobot №86 forma - axborot tumandagi SZN markaziga topshiriladi

- bolalarga ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar xaqida hisobot №2 forma
- yukumli kasalliklarga qarshi emlangan bolalar xaqida hisobot №86 formaga ilova, SZN markaziga topshiriladi
- olib borilgan profilaktik tadbirlar xaqida hisobot №87 forma - SZN markaziga topshiriladi .

Talabalar mustaqil ravishda quyidagi ko'rsatkichlarni qisoblaydilar va ularni tahlil kiladilar:

1. Poliklinikada vrachlar lavozimining to'laqlonligi ko'rsatkichi

Vrach lavozimi yuklamasi:

a) 1 ta pediatriya uchastkasida o'rtacha bolalar soni

poliklinika qamrovidagi bolalar soni
pediatriya uchastkalari soni

b) qabo'l vaqtida 1 soatdagi yuklama:

pediatrga ambulatoriya qatnovlari soni
ambulator qabulda vrachning ish soati

v) uyga qilingan qatnovlar soni

uyga qilingan qatnovlar soni
uyga tashrifga ajratilgan ish soati

g) uchastkadagi 1 yoshli bolalar soni:

poliklinika kamrovidagi 1 yoshli bolalar soni
uchastkalar soni

Shtatlarning to'laqlonligi ko'rsatkichi:

band vrachlik lavozimlari soni x 100%
shtatdagi vrachlik lavozimlari soni

2. Uchastka pediattrlarining ishini tashkil qilish ko'rsatkichlari:

a) uchastkalilik ko'rsatkichi

$$\frac{\text{o'z uchastka vrachiga qilingan qatnovlar soni} \times 100\%}{\text{barcha uchastka pediatrlariga qilingan qatnovlar soni}}$$

b) uyga tashriflar ko'rsatkichi

$$\frac{\text{uyga qilingan aktiv tashriflar soni} \times 100\%}{\text{barcha uyga qilingan qatnovlar soni}}$$

v) ambulator qatnovlarning takrorlanishi ko'rsatkichi

$$\frac{\text{pediatrga qaytadan qilingan qatnovlar soni}}{\text{pediatrga birinchi marta qilingan qatnovlar soni}}$$

g) patronaj ishini tashkillashtirish ko'rsatkichi:

1)
$$\frac{\text{tug'ruqqa qadar patronaj qilingan chaqaloqlar soni} \times 100}{\text{yangi tug'ilgan chaqaloqlar soni}}$$

2)
$$\frac{\text{tug'ruqdan keyin 3 kun ichida patronaj qilinganlar soni} \times 100\%}{\text{yangi tug'ilgan chaqaloqlar soni}}$$

D) 1,2,3 yoshdagi bolalarni sistematik nazorati ko'rsatkichi:

$$\frac{\text{Sistematik ravishda nazorat qilinayotgan bolalar soni} \times 100\%}{1,2,3 \text{ yoshdagi bolalarning soni}}$$

3. Bolalar kasallanishi, nogironligi, o'limi ko'rsatkichlari

$$\frac{\text{kasal bolalar soni} \times 1000}{\text{poliklinika kamrovidagi bolalar soni}}$$

xayotining 1 yilidagi kasallanish ko'rsatkichi:

$$\frac{\text{xayotining 1 yilidagi kasalliklar soni} \times 1000}{\text{poliklinika kamrovidagi 1 yoshgacha bo'lgan bolalar soni}}$$

- «salomatlik indeksi» ko'rsatkichi:

$$\frac{\text{Xayotining birinchi yilida bir marta xam kasal bo'lmagan bolalar soni} \times 100}{\text{Poliklinika kamrovidagi 1 yoshga to'lgan bolalar soni}}$$

- raxit alomatlari saklanib kolganlik ko'rsatkichi:

$$\frac{\text{Aktiv raxit alomatlari saqlanib qolgan bolalar soni} \times 100\%}{\text{Poliklinika kamrovidagi 1 yoshga to'lgan bolalar soni}}$$

- salomatlik guruhlariga taqsimlanish ko'rsatkichi

1 (2,3) guruhga kiritilgan bolalar soni x 100

Poliklinika kamrovidagi bolalar soni

- bolani parvarish qilishda vaqtinchalik meqnat qobiliyatini yo'qotish bilan kechadigan ko'rsatkichlar:

A) mehnatga yaroqsizlik hodisalar:

Bolani parvarish qilish uchun berilgan kasallik varaqalari x 100

Poliklinika qamrovidagi bolalar soni

B) mehnatga yaroqsizlik kunlar

bolani parvarish qilish uchun ishlanmagan kunlar soni x 100

Poliklinika qamrovidagi bolalar soni

V) bir hodisani o'rtacha davomiyligi

Bolani parvarish qilish uchun ishlanmagan kunlar soni

Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik hodisalar soni

G) kasallik tarkibi ko'rsatkichlari

- bolalar kasallanishi ko'rsatkichi

qayd qilingan barcha bolalar kasalliklari soni x 1000

Poliklinika kamrovidagi bolalar soni

- nogironlikka birinchi marta chiqqanlik ko'rsatkichi:

Birinchi marta nogiron deb hisoblangan bolalar soni x 1000

Dispanser nazoratida turgan bolalar soni

- 18 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi:

18 yoshgacha bo'lgan davrda o'lgan bolalar soni x 1000

Dispanser nazoratida turgan bolalar soni

- go'daklar o'limi ko'rsatkichi

Xayotining 1 yilida o'lgan bolalar soni x 1000

Dispanser nazoratida turgan 1 yoshdagi bolalar soni

- perinatal o'lim ko'rsatkichi:

O'lik tug'ilganlar = xayotining 168 soati davomida o'lgan bolalar soni x 1000

O'lik va tirik tug'ilganlar soni

4. Profilaktika faoliyatini qo'llanillovchi ko'rsatkichlar:

A) profilaktika maqsadida qilingan qatnovlar soni

$$\frac{\text{Profilaktika maqsadida qilingan qatnovlar} \times 100\%}{\text{Poliklinikaga qilingan umumiy qatnovlar soni}}$$

B) profilaktika ko'rigi qamrovi ko'rsatkichi

$$\frac{\text{Profilaktik ko'rikda tekshirilgan bolalar soni} \times 100\%}{\text{Profilaktik ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan bolalar soni}}$$

V) qomatini buzilishi, ko'rish qobiliyatida kamchiligi bo'lgan bolalar soni:

$$\frac{\text{Ushbu kamchiliklari bo'lgan bolalar soni} \times 100\%}{\text{Tibbiy ko'rikdan o'tganlar soni}}$$

G) ko'krak suti bilan bog'ilayotgan bolalar soni:

$$\frac{3 \text{ oylikdan } 6 \text{ oylikkacha ko'krak suti bilan boqilayotgan bolalar soni} \times 100}{\text{Ushbu yilda } 12 \text{ oyga to'lgan bolalar soni}}$$

D) dispanser nazorati ko'rsatkichlari:

- dispanser nazoratining to'laqlonligi ko'rsatkichi

$$\frac{\text{Dispanser nazoratiga olingan bolalar soni} \times 100\%}{\text{Dispanserizatsiyaga muxtoj bo'lgan bolalar soni}}$$

Bolalarga ambulator-poliklinika xizmatini tashkillashtirish bo'limidan xar bir talaba mustaqil ishni bajargandan so'ng o'zlashtirib olishi zarur bo'lgan savollar:

1. Aholiga davolash - profilaktika xizmatini tashkillashtirishda ambulator-poliklinika xizmatining ahamiyati va muassasalar o'rni.
2. Ambulator-poliklinika xizmatini tashkillashtirishning prinsipi
3. Bolalar poliklinikasining tarkibiy tuzilishi
4. Uchastka pediatrii va umumamaliyot shifokori faoliyati mazmuni va uni tashkillashtirish
5. Bolalarga dispanserizatsiya kuzatuvini tashkillashtirish
6. Poliklinika hisob-kitob xujjatlari va uning faoliyat ko'rsatkichlarini hisoblash usullari

Poliklinika faoliyati ko'rsatkichlarini qisqartirish uchun ma'lumotlar

Jadval №5

№	Tumanlar	14 yoshgacha bo'lgan bolalar soni	Xayotining birinchi yilida biror marta xam kasal bo'lmagan bolalar soni 1 yoshga to'lgan bolalar soni	1 yoshga to'lgan bolalar soni	Poliklinikag territoriyasida tuqilgan bolalar soni	Tuquqqa qadar bo'lajak onalarni patronaji olib borilgan chakaloklar soni	1 yoshga to'lgan va Ushbu qisobot yilida sistematik nazorat qilingan bolalar soni	Ushbu qisobot yilida faqat tabiiy ovkatlantirilayotgan 4 oylik bolalar soni	Yoshiga xato tibbiy kuriklardan o'tkazilgan bolalar soni
1	1 Barcha tumanlar buylab	2 808736	3 198273	4 636774	5 525921	6 585120	7 486784	8 517385	9 6497965
2	A	71614	11412	40323	30111	34123	20323	29915	561350
3	B	78149	21231	55842	41412	41412	36316	46906	5051777
4	V	42933	12314	36816	22412	26616	11234	27320	358507
5	G	81626	19014	60429	48219	53219	32312	50958	533859
6	D	58502	10414	50636	41313	41313	34314	43604	544128
7	E	131925	21211	85255	69629	72144	52313	71595	967043
8	J	58567	11131	47991	31414	32331	29219	39948	446649
9	Z	64127	12013	46017	32013	31028	28014	32591	469424
10	I	93707	22121	64492	59191	52241	49181	48862	651017
11	K	64729	23311	69712	53511	57312	4414	59537	708537
12	L	41117	12210	36610	23310	22208	12224	31375	354855
13	M	85821	19321	42651	31314	31321	22323	34775	397419

№	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
	1 yoshgacha bo'lgan ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan bolalar soni	Bolalarning tibbiy ko'riklarida aniqlangan kasalliklar soni	Ushbu qisobot yilida o'z uchashtga pediatriaga (UASH) qilingan tashriflar soni	Ushbu qisobot yilida uchastka pediatriariga (UASH) qilingan tashriflar soni	Xayotining 1 yilida o'lgan bolalar soni	Bir kasallik bilan nazoratda turgan bolalar soni	Yil oxirida dispanser nazoratda bo'lgan bolalar soni	Biror kasallik bilan ro'yxatga olingan bolalar soni	Ushbu yilda birinchi marta kasalligi tasdiqlangan va dispanser nazoratga	Ma'lum kasallik bo'yicha ushbu yilda birinchi marta kasalligi tasdiqlangan va
1	7743145	7508	6123974	7772910	25857	859104	929815	4273080	2970548	665970
2	601900	1145	530328	782631	534	109983	120519	687526	571116	66194
3	673499	307	463251	681473	2126	78251	82874	89635	224040	74650
4	449810	752	347189	427718	1307	43841	52502	89635	231291	37447
5	691692	586	478613	615732	2057	62123	67498	304216	293053	47849
6	616315	521	318716	406184	1832	73303	78821	127784	51234	52171
7	1087596	693	772761	937614	3425	159661	176421	192765	367016	146293
8	534950	257	561927	691941	3206	317754	32653	60274	34506	26589
9	341170	409	479485	582914	2432	47886	49591	184932	118654	31959
10	784392	1597	811492	896415	2148	77508	88300	460149	358798	59412
11	841176	528	633543	782739	2582	70981	76235	510394	394798	59410
12	426256	403	308345	402837	1759	50764	53058	163725	75735	34903
13	494389	350	419328	564712	2449	51049	51313	434715	250665	360093

3.3 MAKTABGACHA BOLALAR MUASSASALARIDA VA MAKTABLARDA TIBBIY XIZMATNI TASHKILLASHTIRISH

Maktabgacha bolalar muassasalarida va maktablarda tibbiy xizmatni tashkillashtirish mavzusi kafedrada o'rgatiladi va mustaqil uyda bajariladi.

Talabalarga amaliy mashqulotda jamoat salomatligi, soqliqni saqlashni tashkillashtirish va boshqarish yo'nalishidagi adabiyotlar va uslubiy qo'llanmalardan foydalangan qolda bolalar va o'smirlar gigienasi bo'yicha ma'lumotlar beriladi.

Shuningdek, talabalarga maktabgacha muassasalar tarkibi, ish uslublari, faoliyat ko'rsatuvchi tibbiy xodimlar vazifalari tushuntirib beriladi va yurgiziladigan tibbiy xujjatlar bilan tanishtiriladi. Talabalar tibbiy ko'rikdan o'tkazish, zmlash ishlarini olib borish, taomnoma tuzish va boshqa tibbiy tadbirlar o'tkazish koidalari bilan tanishadilar. Maktabgacha bolalar muassasalari va maktablrdagi tibbiy xodimlar faoliyatiga va bolalar salomatligiga va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat samarasini oshirish uchun tavsiyalar beradilar,

Talabalar O'zR SSV ning 2006y. 287-sonli buyriqi asosida tasdiqlangan tibbiy xujjatlar bilan tanishadilar.

I. Tibbiy xujjatlar:

- yasli bolani qabul qilish jurnali - № 122/u
- bolalar boqchasi, yasliga kundalik bolaning qatnovi tabeli- 123/u
- bolaning ovkatlantirish kartasi (9 oylikkacha bolalar uchun) – 124/u
- izolyatsiya xonasining izolyatsiya ishlari jurnali – 125/u
- bolaning tibbiy kartasi – 026/u
- dispanser nazoratini olib borish kartasi – 030/u
- yukumli kasalliklarni qayd qilish jurnali – 060/u
- profilaktik zmlash kartasi – 063/u
- bolaning rivojlanish tarixi – 112/u
- guruh kundaligi – 127/u
- muassasaning sanitariya jurnali – 153/u
- dezinfektsiya ishlaringi qayd qilish jurnali – 363/u

2. Hisob xujjatlari:

- maktabgacha bolalar muassasalarida ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat xaqida hisobot - №22-forma, territoriyadagi bolalar poliklinikasiga topshiriladi

- bog'cha-yaslidagi o'rinlarning faoliyati xaqida hisobot - tuman sog'liqni saqlash muassasiga topshiriladi

- bog'cha-yaslidagi vrachlarning faoliyati xaqida hisobot - tuman sog'liqni saqlash muassasiga topshiriladi

Talabalar shu kabi hisobot xujjatlari bilan tanishib chiqadilar, so'ngra maktabgacha bolalar muassasalar faoliyati tahlil ko'rsatkichlarini hisoblaydilar:

- salomatlik indeksi:

$$\frac{\text{hisobot yilida 1 yoshgacha biror marta xam kasal bo'lmagan bolalar}}{\text{yasli-bog'chada shu yoshdagi bolalar soni}} \times 100$$

- ko'riklarning bajarilganligi

$$\frac{\text{ko'rikdan o'tkazilgan bolalar soni}}{\text{ko'rikdan utishi lozim bo'lgan bolalar soni}} \times 100$$

- profilaktik kuriklarda aniqlangan kasalliklar soni

$$\frac{\text{kasallik aniqlangan bolalar soni}}{\text{ko'rikdan o'tkazilgan bolalar soni}} \times 100$$

- dispanser nazorati ko'rsatkichi:

$$\frac{\text{vil oxirida biror kasallik bilan dispanser nazoratidagi bolalar}}{\text{dispanser nazoratida turgan barcha kasal bolalar soni}} \times 100$$

- o'z vaqtida dispanser nazoratiga olinganlik ko'rsatkichi

$$\frac{\text{kasallik aniqlanishi bilan dispanser nazoratga olinganlar soni}}{\text{hayotida birinchi marta tashhis qo'yilganlar soni}} \times 100$$

- bolalar kasalligi ko'rsatkichi:

$$\frac{\text{ushbu vilda qayd qilingan kasalliklar soni}}{\text{bog'cha-yaslidagi bolalarning o'rtacha soni}} \times 100$$

Maktabgacha bolalar muassasalarida tibbiy xizmatni tashkillashtirish bo'limidan xar bir talaba mustaqil ishni bajargandan so'ng o'zlashtirib olishi zarur bo'lgan savollar:

1. Maktabgacha bolalar muassasasi va maktablarni shakllantirish prinsipi
2. Bolalar muassasalarining turlari
3. Maktabgacha bolalar muassasasi va maktablarning shtat birliklari
4. Maktabgacha bolalar muassasasi va maktab vrachilarining faoliyati bo'limlari
5. Maktabgacha muassasa tibbiy xujjatlari
6. Maktabgacha muassasa faoliyatini taqil qilish ko'rsatkichlari

Maktabgacha muassasalar faoliyatini taqil qilish uchun ma'lumotlar

Bog'cha-yasli	Xayotining birinchi yilida kasal bo'lmagan bolalar soni	1 yoshgacha bo'lgan bog'cha-yasliga katnayotgan bolalar soni	Surunkali tonzil kasalligi bo'lgan bolalar soni	Ko'rikdan o'tkazilgan bolalar soni	Ko'rikdan o'tkazilishi lozim bo'lgan bolalar soni	Surunkali tonzil kasalligi bilan dispanser nazoratiga olinganlar soni	Dispanser nazoratida turgan barcha bolalar soni	Birinchi marta dispanserizatsiyadan o'tganlardan nazoratga olingan bemorlar soni	hayotida birinchi marta kasalligi aniqlangan bemorlar soni	Ushbu yilda gayd qilingan kasalliklar soni	Bolalar bog'chasi- yaslidagi bolalarning o'tacha soni
№1	8	15	39	130	135	39	80	9	13	23	150
№2	12	24	35	110	116	35	75	18	26	26	140
№3	10	15	32	135	135	32	60	3	5	25	150
№4	4	10	36	119	120	36	58	2	7	17	130
№5	8	13	24	75	77	24	42	8	12	32	90
№6	21	30	27	128	130	27	54	10	14	44	160
№7	18	25	29	133	135	29	58	11	13	33	160
№8	3	10	15	120	120	12	78	18	20	29	130
№9	4	10	25	90	90	25	30	5	7	27	100
№10	27	30	29	120	120	29	60	19	21	28	150
№11	12	29	37	140	140	37	78	16	21	29	160
№12	8	20	40	110	110	40	91	1	4	24	130
№13	5	10	18	140	140	18	87	7	14	34	150
№14	13	10	26	140	140	25	44	7	10	40	160

3.4 BOLALARGA KASALXONA XIZMATINI TASHKILLASHTIRISH

(O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining 2007 y.10.04 155-sonli «O'zbekiston Respublikasida bolalarga statsionar xizmatini ko'rsatish xaqida» buyrug'iga asosan»)

Bolalarga statsionar xizmatini tashkillashtirish mavzusi talabalarga kafedrada yoki bolalar kasalxonasi bazasida o'rgatiladi. Amaliy mashg'ulotda bolalar kasalxonasi turlari, tarkibi, shtat birliklari, vazifasi, gospitalizatsiya qilish yo'llari va kasalxonada davolash xamda bolalarni tarbiyalash uslublari, tibbiy xodimlarning mas'uliyatlari, hisob-kitob xujjatlari va faoliyat tahlil ko'rsatkichlari tushuntirib beriladi.

Agar mashg'ulot kasalxona bazasida olib borilsa, u holda talabalar kasalxona tarkibi, qabo'l bo'limii va uning vazifalari, palata seksiyalari, apteka tuzilishi bilan tanishadilar, katta xamshira faoliyatini o'rganadilar, tibbiy xujjatlarni to'ldirishni o'rganadilar. So'ngra talabalar bo'limlar bo'yicha tibbiy xodimlarga birlashtiriladilar va ular bilan birgalikda bo'lim faoliyatini o'rganadilar va tibbiy xujjatlarni to'ldiradilar. Mashg'ulot oxirida o'qituvchi talabalarni bir joyga yigib ular bilan kasalxona faoliyatini muxokama qiladi.

Bolalar kasalxonasida talabalar quyidagi tibbiy xujjatlar bilan tanishishlari lozim:

1. Tibbiy xujjatlar:

- gospitalizatsiya qilish yoki undan bosh tortganlarni qayd qilish jurnali – 001/u
- bemorning tibbiy kartasi – 003/u
- temperatura varag'i – 004/u
- reanimatsiya bo'limida yotgan bemorning salomatligi xaqidagi ma'lumotnoma varag'i – 011/u
- patologik-anatomik tekshiruvi bayonnomasi – 013/u
- kasalxonadan chiqib ketayotgan bemorning tibbiy kartasidan ko'chirma – 066/u
- bemorlarni o'rinlardan foydalanishini qayd qilish varag'i – 007/u
- kasalxona o'rinlaridan foydalanilganligi xaqida yig'ma qaydnomasi – 016/u
- muolajalarni qayd qilish jurnali – 029/u
- o'tkir zaxarlanishlar, yuqumli kasalliklar xaqida shoshilinch xabarnoma – 058/u
- ba'zi dorilarni salbiy ta'siri xaqida xabarnoma – 093/u
- yuqumli kasalliklarni qayd qilish jurnali – 060/u
- sanitar-targ'ibot ishlarni qayd qilish jurnali – 038-0/u
- retseptlar – 107/u

Bundan tashqari talabalar 2002 y. 283-sonli buyruqqa asosan tasdiqlangan tibbiy xujjatlar bilan xam tanishadilar.

2. hisobot xujjatlari:

- davolash-profilaktika muassasasi hisoboti №1 forma, - tuman sog'liqni saqlash muassasasiga topshiriladi

-kasalxonadagi o'rinlarning faoliyati xaqidagi hisobot № 91 forma, - tuman sog'liqni saqlash muassasasiga topshiriladi

- kaslxona tibbiy xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish xaqida hisobot № 6-t forma, - tuman sog'liqni saqlash muassasasiga topshiriladi

Shuningdek talabalar boshqa hisob-kitob xujjatlarini ko'rib chiqadilar va mustaqil kasalxona faoliyatini tahlil qilish ko'rsatkichlarini hisoblaydilar:

- o'rinlarning o'rtacha bandligi

bemor bolalar o'tkazgan o'rin-kunlar soni
shtatdagi o'rinlarning o'rtacha soni

- bemorning o'rinda yotish davomiyligi:

bemor bolalar o'tkazgan o'rin-kunlar soni
kasalxonadan o'tgan bemor bolalar soni

- o'rinlar almashinuvi:

kasalxonadan o'tgan bemor bolalar soni
shtatdagi o'rinlarning o'rtacha soni

- letallik ko'rsatkichi:

kasalxonada o'lgan bemor bolalar soni x 100
kasalxonadan o'tgan bemor bolalar soni

- bir sutkadagi letallik:

kasalxonada bir sutka davomida o'lgan bemor bolalar soni x 100
kasalxonadan o'tgan bemor bolalar soni

- biror kasallik sababli letallik:

bir xil kasallik bilan o'lgan bolalar soni x 100
ushbu kasallik bilan kasalxonadan o'tgan bolalar soni

Kasalxona faoliyatini tahlil kiilish uchun kerakli ma'lumotlar №7 jadvalda keltirilgan.

Bolalarga kasalxona yordamini tashkillashtirish bo'limidan xar bir talaba mustaqil ishni bajargandan so'ng o'zlashtirib olishi zarur bo'lgan savollar:

1. Bolalarga statsionar xizmatini ko'rsatuvchi muassasalar
2. Bolalar kasalxonasi tarkibiy bo'limlari va o'ziga xos xususiyatlari
3. Bolalar kasalxonasida bo'limlarni shakllantirish printsiplari
4. Vrach-ordinatorning asosiy vazifalari
5. Bolalar kasalxonasi tibbiy xujjatlari
6. Bolalar kasalxonasi faoliyatini tahlil qilish ko'rsatkichlari

Bolalar kasalxonasi faoliyatini tahlil qilish uchun ma'lumotlar.

№	Tumanlar	Shtatda ajratilgan o'rinlar soni	Yil davomida kasalxonaga yotqizilgan bemor bolalar	Yil davomida kasalxonada davolanib chiqkanlar soni	Yil davomida kasalxonada o'lganlar soni	Bemor bolalar o'tkazgan o'rin-kunlar soni	Yil davomida kasalxonaga yotqizilgan 1 yoshgacha bo'lgan bolalar soni
	1	2	3	4	5	6	7
1	A	31163	593864	588805	5601	9838000	35625
2	T	20290	448928	443379	4193	6733700	46867
3	K	12738	284300	2822222	2187	3972300	25413
4	M	16795	373571	370119	9395	5339300	37694
5	S	17528	418810	413961	3293	5881400	56852
6	N	30081	659334	654445	4994	9436000	67287
7	B	14154	315567	312057	2982	4477100	37512
8	F	15692	355639	351808	3091	4948600	38825
9	K	25590	548808	543937	4124	7940100	46463
10	L	24590	570990	563441	4856	7780600	75992
11	D	11732	262889	260883	2207	3750100	25722
12	P	13779	290289	285839	3284	4472600	28249

№	Jumladan, 1-chi sutkada o'lganlar	Bolalar		Shulardan o'lganlar soni Kasalxonadan o'tgan bemorlar	Nafas a'zolari kasalliklari	
		Yil davomida kasalxonadan utganlar soni	Bolalar		Kasalxonadan o'tgan bemorlar	Ulardan o'lganlari
	8	9		10	11	12
1	248	144412		20111	55213	388
2	471	145269		3250	80260	1492
3	498	85292		1881	41355	744
4	676	113083		2809	54903	1453
5	478	162666		2730	92048	1501
6	1005	209385		4155	109030	1783
7	254	102029		2721	37759	1022
8	425	124684		2603	68456	1068
9	496	155778		2598	77823	1034
10	406	211595		3976	121694	1266
11	202	80386		1864	38225	830
12	474	85693		2827	41658	1391

3.5 AYOLLARGA AKUSHER-GINEKOLOGIK XIZMATNI TASHKILLASHTIRISH. AKUSHERLIK KOMPLEKSI FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH

(O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining 2003 y
13.11. «perinatal xizmat sifatini oshirish maqsadida akusherlik komplekslari
faoliyatini qayta tashkillashtirish» xaqidagi buyrug'i asosida)

Ayollarga akusher-ginekologik xizmatini tashkillashtirish mavzusi kafedrada yoki tug'riqsona xamda ayollar maslaxatxonasi bazasida o'rganiladi. Amaliy mashg'ulotda talabalarga ayollar maslaxatxonasi va tug'ruqxonaning tarkibi, vazifalari, shtat birliklari, tibbiy xujjatlari xamda muassasalar faoliyatini tahlil qilish ko'rsatkichlarini tushuntirib beriladi. agarda mashg'ulot akusherlik komplekslarida olib borilsa, u holda avval talabalarga muassasaning tarkibiy tuzilishlari, jixozlanganligi, bo'limlarning ish uslublari va tibbiy xujjatlar bilan tanishtiriladi.

Songra talabalar xonalarga (ro'yxatxona, muolaja xonasi, uchastka vrachi va boshqa xonalar) tarqatiladi va ularga tibbiy xujjatlar beriladi. ular tibbiy xodimlar bilan birgalikda tibbiy xujjatlarni to'ldiradilar. bundan tashqari talabalarga stat.talon, vrach kundaligi, muolaja xonasi jurnali kabi xujjatlar beriladi va ular asosida talabalardan ish faoliyatni tahlil qilish ko'rsatkichlarini hisoblash talab etiladi.

Tug'ruqsona va ayollar maslaxatxonasida talabalar quyidagi hisob-kitob xujjatlari bilan tanishib chiqishlari lozim:

1. Tibbiy xujjatlar:

- xomilador, tuquvchi va tukan ayollarni qabul qilish jurnali – 002/u
- xomilani sun'iy to'xtatilganlik tibbiy kartasi – 003-1/u
- tug'ruq tarixi – 096/u
- chaqaloqlarning rivojlanish tarixi – 097/u
- statsionardagi tug'ruqlarni ro'yxatga olish jurnali – 010/u
- yangi tug'ilgan chaqaloqlar bo'limi jurnali – 102/u
- kasalxonadan chiqib ketayotganning kasallik tarixidan ko'chirma – 066/u
- kasalxonada o'rinlar faoliyatini nazorat qilish jurnali – 007/u
- kasalxonada o'rinlar faoliyatini nazorat qilish va bemorlarni xarakati bo'yicha yig'ma qaydnomasi – 016/u
- xomilador ayolning almashinuv kartasi – 113/u
- muolajalarni ro'yxatga olish jurnali – 029/u
- xomilador va tugayotgan ayollarning individual kartasi – 111/u
- tasdiklangan tashxis asosida statistik talon – 025-2/u
- uyda tuqqanlarni qayd qilish jurnali – 032/u
- perinatal o'lim xaqida guvohnoma – 106-2/u

2. hisobot xujjatlari:

- davolash-profilaktika muassasasining yillik hisoboti – tuman sog'liqni saqlash muassasasining uslubiy bo'limiga topshiriladi

- xomilador, tug'uvchi va tukan ayollarga ko'rsatilgan xizmat bo'yicha hisobot №3 forma – tuman sog'liqni saqlash muassasasiga topshiriladi

So'ngra talabalar mustaqil ravishda tug'ruqxona va ayollar maslaxatxonasi faoliyatini tahlil ko'rsatkichlarini hisoblaydilar. Bunda ular:

- akusher-ginekolog nazoratiga erta olingan xomiladorlar

xomilalik davrining 12 haftasigacha nazoratga olingan xomiladorlar $\times 100$
ushbu yilda nazoratga olingan xomiladorlar soni

- o'z vaqtida tug'ruq ko'rsatkichi:

tug'ruq belgilangan vaqtda namoyon bo'lgan xomiladorlar soni $\times 100$
tug'ruqlarning umumiy soni

- erta neonatal o'lim ko'rsatkichi: (bola xayotining 1 haftasi)

xayotining 6 kunida o'lgan bolalar soni $\times 1000$
tirik tug'ilganlar soni

- perinatal o'lim ko'rsatkichi (o'lik tug'ilish yoki xayotining 1 haftasida o'lish)
o'lik tug'ilganlar + xayotining 1 haftasida o'lgan bolalar soni $\times 1000$ tirik va
o'lik tug'ilganlar soni

Ayollarga tibbiy xizmatni tashkillashtirish bo'limidan xar bir talaba mustaqil ishni bajargandan so'ng o'zlashtirib olishi zarur bo'lgan savollar:

1. Ayollarga akusher-ginekologik xizmat ko'rsatadigan muassasalar. Akusherlik kompleksiga kiradi.
2. Ayollar maslaxatxonasi tarkibi.
3. Sog'lom ayollar «ayollar maslaxatxonasiga» qay hollarda tashrif buyuradilar
4. Uchastka akusher-ginekologining vazifalari
5. Ayollar maslaxatxonasining qaysi faoliyat ko'rsatkichlari uning sifatini qo'llanillaydiq
6. Almashinuv kartasi xomilalikning qaysi davrida beriladi
7. Uchastka akusher-ginekologi qanday tibbiy xujjatlar bilan ishlaydi
8. Tug'ruqxonaning tarkibiy tuzilishi
9. Tug'ruqxona kabo'l bo'limining o'ziga xos xususiyatlari
10. Tug'ruqxona observatsiya bo'limiga kanday ayollar yotqiziladiq
11. Tug'ruqxonadagi akusher-ginekolog vazifalari.

Ayollar maslaxatxonasi va tuqruqxona faoliyatini taqil qilish uchun ma'lumotlar

№	Tuman- lar	Xomilalikning 12 xaftasida nazoratga olinganlar	Yil davomida nazoratga olingan xomiladorlar	Tuquq o'z vaqtida tugallangan ayollar	Umumiy tuquqlar soni	Xayotining 6 kunida o'lgan bolalar	Tirik tuqil ganlar	Uflik tuqilganlar va xayotining 1 xaftasida o'lganlar
	1	2	3	4	5	6	7	8
1	A	35155	45426	63175	65136	405	63070	572
2	B	46336	57668	53357	55018	228	57561	611
3	V	34857	48593	44644	46067	393	47497	566
4	G	30124	37497	32564	33793	201	37605	488
5	D	54565	71732	67301	70300	869	71756	1154
6	E	54315	69460	39589	41426	485	48673	632
7	J	35953	49953	45558	46945	378	50828	632
8	Z	27755	46742	44411	45703	486	53496	580
9	I	77405	101720	92680	95472	703	4589	1145
10	K	46980	54590	50335	52044	318	54118	504
11	L	47007	63634	59368	60512	320	62974	661
12	M	33102	38935	35974	37235	361	38557	467

№	Xomilador, tuquvchi va tuqqan ayollarning o'limi	Kabul qilingan tugruqlar	yetuk tuqilgan chakaloklar o'limi	Chala tugilgan chakaloklar o'limi
	9	10	11	12
1	71	48506	223	349
2	38	45303	209	402
3	41	46315	149	417
4	16	36947	197	291
5	42	70257	662	492
6	33	62029	243	390
7	29	49789	201	364
8	30	51001	199	371
9	43	99193	383	762
10	17	53149	205	299
11	42	60366	184	477
12	21	37312	183	284

3.6 QISHLOQ JOYLARDA AYOLLARGA VA BOLALARGA TIBBIY XIZMATNI TASHKILLASHTIRISH

Qishloq joylarda ayollarga va bolalarga tibbiy xizmatni tashkillashtirish mavzusi kafedrada yoki qishloq vrachlik punkti (KVP) va Markaziy tuman birlashmasi (MTB) bazasida olib boriladi. Amaliyotda qishloq aholisiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatning o'ziga xos xususiyatlari, uslub va shakllari, tibbiy xizmat bosqichlari, bolalarning xar bir yoshlarida uchraydigan kasalliklarni va bolalar o'limini kamaytirishda KVP va MTB xamda boshqa muassasalarning ahamiyati tushuntirib beriladi, ularda qo'llaniladigan tibbiy xujjatlar bilan tanishtiriladi va qishloq davolash-profilaktika muassasalar faoliyatini tahlil qilish ko'rsatkichlarini hisoblash o'rgatiladi.

So'ngra talabalarga qishloq davolash-profilaktika muassasalari VP va MTB tarkibi bilan tanishtiriladi va tibbiy xodimlarga birlashtiriladi. Ular bilan birgalikda talabalar muassasalar faoliyatini tahlil kiladilar, tibbiy xujjatlar to'ldiradilar.

Talabalar quyidagi hisob-kitob xujjatlar bilan tanishadilar:

1. Tibbiy xujjatlar:

- yuqorigi bo'limlarda keltirilgan bolalar poliklinikasi, bolalar statsionari, ayollar maslahatxonasi va tug'ruqxonalarda qo'llaniladigan tibbiy xujjatlarning barchasini ko'rib chiqadilar. Undan tashqari:
- shoshilinch tibbiy xizmat chaqiruv kartasi – 110/u
- chaqiruvlarni va ularni bo'limlar bo'yicha bajarilganligini qayd qilish jurnali – 117/u

2. hisobot xujjatlari:

- davolash-profilaktika muassasasining yillik hisoboti №1 forma, tuman markaziy birlashmasi bosh shifokoriga topshiriladi
- bolalarga ko'rsatilgan tibbiy xizmat xaqida hisobot varaqasi №2, tuman markaziy birlashmasi bosh shifokoriga topshiriladi
- kasalxona o'rinlaridan foydalanish fondi bo'yicha hisobot №91 forma - tuman markaziy birlashmasi bosh shifokoriga topshiriladi.

Tuman markaziy birlashmasining hisobot xujjatlari:

- tuman sog'liqni saqlash bo'limining hisoboti, bunda tumandagi davolash-profilaktika muassasalar hisoboti ilovada beriladi №90-RIK – viloyat sog'liqni saqlash muassasasiga topshiriladi.
- profilaktika tadbirlari hisoboti №87 forma, tuman SZN tizimiga topshiriladi

- kasalxona, bolalar yasli-bog'chasi va sanatoriyalardagi o'rinlar faoliyati xaqida hisobot- forma 91-RIK
- yuqumli kasalliklar bo'yicha hisobot, forma №85-inf, tuman SZN tizimiga topshiriladi
- profilaktik emlanishlar hisoboti №86 forma, tuman SZN tizimiga topshiriladi
- yuqumli kasalliklarga karshi emlanilgan bolalar xaqida №86 formaga ilova
- tuman SZN tizimiga topshiriladi.

Talabalar mustaqil darajada yuqorida keltirilgan davolash-profilaktika muassasalari faoliyatini tahlil qilish ko'rsatkichlarini hisoblaydilar va ularning ish faoliyatini qo'llanillaydilar. Bo'lar ichida qishloq muassasalar faoliyatini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga egadir:

- tug'ilish ko'rsatkichi:

$$\frac{\text{yil davomida tirik tug'ilganlar soni} \times 1000}{\text{aholining o'rtacha soni}}$$

- umumiy o'lim:

$$\frac{\text{barcha yoshdagi o'limlar soni} \times 1000}{\text{srednegodovaya chislennost naseleniya}}$$

- yosh bo'yicha o'lim ko'rsatkichi:

$$\frac{\text{aniq bir yoshda o'lganlar soni} \times 1000}{\text{shu yoshdagi aholining o'rtacha soni}}$$

- go'daklar o'limi:

$$\frac{\text{go'daklik davrida o'lgan bolalar soni} \times 1000}{\text{tirik tug'ilgan bolalar soni}}$$

- Rats bo'yicha go'daklar o'limi::

$$\frac{\text{go'daklik davrida o'lgan bolalar soni} \times 1000}{\text{o'tgan yil tug'ilganlarning } 1/3 + \text{ushbu yil tug'ilganlarning } 2/3}$$

Qishloq aholisiga tibbiy xizmatni tashkillashtirish bo'limidan xar bir talaba mustaqil ishni bajargandan so'ng o'zlashtirib olishi zarur bo'lgan savollar:

1. Tumanning tibbiy-sanitariya tarmogini tarkibiy tuzilishi va qishloq aholisiga tibbiy xizmatni tashkillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.
2. qishloq vrachlik punkti, uning tarkibi, kategoriyasi va tamoyillari
3. qishloq vrachlik punktida davolash-profilaktika ishlarini tashkillashtirish (dispanserizatsiya, hosil yig'ish davrida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, sanitariya-profilaktika va sanitariya-epidemiya qarshi tadbirlarni ishlab chiqish, qishloq-xujalik ishchilariga davolash ishlarini tashkillashtirish)
4. Tuman markaziy birlashma, uning asosiy vazifalari
5. Tuman sog'liqni saqlash boshqarmasi (tibbiy kengash, MTB tashkiloti-uslubiy bo'limi, tuman tor-mutaxassislari, ish uslublari) Tuman bosh pediatri o'rinbosarining faoliyati.
6. Viloyat kasalxonasi, uning tarkibi va asosiy vazifalari.
7. qo'llaniladigan tibbiy xujjatlarni chuqur o'rganish va ko'rsatkichlarni hisoblash.

Qishloq sog'liqni saqlash tizimi ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun ma'lumotlar
Stasionar yordam.

№	Tuman	Shtatda ajratilgan o'rinlar soni	Yil davomida kaslixonaga yotqizilgan bemorlar	Kasalxonada davolanib chiqqan bemorlar	Yil davomida o'lganlar soni	Bemorlar o'tkazgan o'rin-kunlar soni	1 yoshgacha bo'lgan kasalxonaga yotqizilgan bolalar soni	Ulardan 1chi sutkada o'lgan bolalar	bolalar		Nafas olish tizimi kasalliklari	
									Kasalxonada n chiqarilgan	Kasalxonada o'lgan bolalar soni		Kasalxonaga yotqizilganla
1	A	3008	65934	65461	498	943601	6698	10	20947	416	10903	178
2	B	2112	45871	44338	419	683370	4648	47	14529	328	8025	142
3	V	1365	29420	28999	220	399850	2564	50	8619	198	4136	79
4	G	2579	54980	54399	415	795010	4656	49	15578	269	7783	105
5	D	1643	37256	37000	336	533820	3767	65	11307	275	5480	141
6	E	1312	29430	29111	226	399581	2641	50	8599	190	4205	75
7	I	1416	3155	31205	297	447610	3751	25	10208	273	3785	103
8	K	1579	35663	35281	319	495850	3891	43	12568	261	6855	107
9	L	3082	58756	57990	538	975911	3500	23	13569	199	5456	37
10	M	2459	57099	56344	485	778060	7599	40	21159	397	12169	126
11	N	1173	26289	26088	221	375010	2572	20	8038	187	3822	83
12	O	1379	29029	28584	328	447260	2825	47	8569	283	4166	139
13	P	1377	28929	28583	328	447320	2824	47	8569	282	4165	139

№	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
	Yil davomida biror marta xam kasal bo'lmagan bolalar	1 yoshga to'lgan bolalar soni	Tuquqqa qadar patronaj qilingan chakaloklar soni	KVP kamrovidagi chakaloklar soni	Xayotining birinchi yilida sistematik nazoratda bo'lgan bolalar	4 oylik davrigacha tabiiy ovkatlantirilgan bolalar soni	2 yoshga to'lgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan bolalar soni	2 yoshga to'lgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan bolalar soni	2 yoshga to'lgan bolalardan tibbiy ko'rikda aniqlangan kasalliklar soni	USh (VOP) ga yil davomida qilingan tashriflar soni	USh ga o'z uchashtasidagi bolalarning tashriflari
1	1982	6367	5832	5898	4932	5173	6497	6634	1325	69740	82651
2	2091	7005	5939	6032	5832	5830	5347	6586	1244	69031	81959
3	2150	7327	6451	6545	6345	6343	5032	5234	1357	70572	92706
4	1976	6958	5998	6142	5958	5924	5942	6048	1284	55031	80165
5	1899	5988	4991	5013	4945	5001	6401	6534	2123	53061	79861
6	2194	6327	5961	6039	5916	5680	6324	6498	1045	64042	80150
7	2146	6958	5836	6145	6032	6030	6445	6564	4234	63565	87457
8	1878	6738	5959	5992	5912	5819	6348	6432	1345	58671	79981
9	1799	6288	5635	5946	5847	5832	6567	6598	1247	59690	78651
10	1996	6358	5989	6038	6001	5845	6145	5334	1374	64325	81351
11	2057	6439	5634	5845	5799	5627	6234	6328	1584	63486	82342
12	2101	6945	5930	6045	5932	5923	6875	6935	1687	59471	81049
13	2009	6501	5845	5958	5848	5618	6424	6524	1343	59981	80327

No	Yil davomida tug'ilganlar soni	Aqolning o'rtacha soni	Ummiy o'lganlar soni	Xayotining 1 yilida o'lgan bolalar soni	Yil oxiriga dispanser nazoratida turgan bolalar soni	Zotiljam kasalligi bilan dispanser nazoratidagi bolalar soni	Zotiljam kasalligi birinchi marta aniqlangan va dispanser nazoratiga	Vil davomida qayd qilingan zotiljam kasalliklari soni	Zotiljam tashxisi birinchi marotaba tasdiqlanganda dispanser nazoratiga qilinganlar soni	Zotiljam tashxisi birinchi marotaba tasdiqlanganlar soni
	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21
1	2627	65689	405	857	9298	7662	321	427	229	232
2	3801	70031	591	530	11051	829	405	546	359	369
3	2937	72457	586	213	8257	223	105	123	67	73
4	2705	68777	412	130	5951	195	86	75	115	136
5	2358	59876	396	205	6749	124	78	146	68	77
6	2537	62546	428	183	7789	322	123	132	115	116
7	2800	69328	459	242	15640	669	325	325	128	139
8	2734	68321	501	320	3265	537	319	246	263	265
9	2485	61387	342	243	4951	139	88	113	65	66
10	2535	63459	402	214	8731	129	50	145	83	83
11	2748	62329	398	258	7323	345	116	129	187	193
12	2932	68327	345	175	5301	667	330	341	239	248
13	2465	65001	396	198	5431	382	142	158	126	130

3.7 VRACHLIK MEHNAT EKSPERTIZASINI TASHKILLASHTIRISH

(O'zbekiston Respublikasi Soqliqni Saqlash Vazirligining 2000 y. 14.02
«Vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotishda kasallik varaqasi va
ma'lumotnomalar berish tartibi xaqida» buyrugi asosida)

Ushbu mavzu talabalarga kafedrada yoki poliklinika va kasalxonada amaliy mashg'ulotlar olib borilayotganda tushuntirib beriladi. Bunda avval talabalarni bollarni parvarish qilishda, xomiladorlik va tug'ruq davrida, xamda shu kabilarda kasallik varaqasini berish, mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg'un yo'qotishda vrachlik mehnat ekspertizasini tashkillashtirish tartib qoidalari bilan tanishtiradilar, so'ngra masalalarni muxokama qiladilar. Xaar bir talaba boshqalar ishlagan masalalarni va vaziyatni kanday xal etilganligini baholash xuquqiga egadirlar. Talabalarga ijtimoiy sug'urta ahamiyati, jumladan bolalar va ayollarni salomatligini muxofaza qilishda ijtimoiy ta'minot imtiyozlari tushuntiriladi. O'qituvchi talabalarga bemor bolalar aks etgan vaziyatli masalalar topshiradi. Talabadan bu masalani xal qilishi va kasallik varaqasini berish tartibini aniqlashi talab etiladi. O'qituvchi xar bir talaba bajargan masalani va tuldirilgan kasallik varaqasini tekshirib muxokama qiladi va natijalarga asosan qo'llanillaydi

Vrachlik mehnat ekspertizasini tashkillashtirishda talabalar quyidagi tibbiy xujjatlar bilan tanishib chiqadilar:

1. Tibbiy xujjatlar:

- kasallik varaqasi
- kasallik varaqasini qayd qilish jurnali – 036/u
- bolani parvarish qilish uchun vaqtinchalik ish faoliyatidan ozod qilish xaqida ma'lumotnoma– 138/u
- VMK xulosalarini qayd qilish jurnali– 035/u
- VMZK ga yullanma – 088/u

2. hisobot xujjatlari:

- vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotishga sabab kasalliklar xaqidagi hisobot -№21 (yillik) va №21-T (kvartal) forma

Talabalar mustaqil ravishda quyidagi ko'rsatkichlarni tahlil kiladilar:

- mehnat qobiliyatini yo'qotish hodisalari:

mehnat qobiliyati yo'qotganlik hodisalari soni x 100
ishchilarning o'rtacha soni

- mehnat qobiliyatini yo'qotish kunlari:

$$\frac{\text{mehnat qobiliyatini yo'qotish kunlari soni} \times 100}{\text{ishchilarning o'rtacha soni}}$$

- hodisaning davomiyligi ko'rsatkichi

$$\frac{\text{mehnat qobiliyatini yo'qotish kunlari soni}}{\text{mehnat qobiliyati yo'qotganlik hodisalari soni}}$$

- kasbiy shikastlanish ko'rsatkichi:

$$\frac{\text{kasbda olingan shikastlar soni} \times 100}{\text{ishchilarning o'rtacha soni}}$$

MASALALAR:

Variant 1

Shifokor onasiga bemor bolani parvarish qilishi uchun 5 kunga kasallik varaqasini ochdi, bolaning kasalligi uzoq davom etganligi sababli shifokor kasallik varaqasini 2 marta 5 kundan uzaytirdi. Xar gal kasallik varaqasini to'ldirishda vrach o'z imzosini qo'yib bordi. Ushbu vaziyatda kasallik varaqasini tuldirishda vrach qanday xatoliklarga yul qo'ygan

Variant 2

5 mayda ona bemor bolasi bilan shifokor tashrifiga kelgan. Shifokor bolaga «o'tkir bronxit» tashxisini qo'ygan va 5 maydan onaga bemor bolani parvarishi uchun kasallik varaqasini ochib bergan. Lekin ona shifokorga bir kun oldin bolaning tana xarorati kutarilganligi, kuchsizligi sababli ishga borolmaganligi va kasallik varaqasini 4 maydan ochib berishini iltimos qildi. Shifokor onaga 5 maydan kasallik varaqasini ochib berdi iva ishdan ozod qilish vaqtini 4 maydan belgilab berdi. Shifokor Ushbu vaziyatda to'g'ri yo'l tutdimi

Variant 3

Mehnat ta'tili davrida onaning bolasi kasal bo'lib koldi. Shifokor bemor bolani parvarish qilish uchun onaga kasallik varaqasini ochib berdi. Ish joyida onaga kasaba uyushmasi ushbu kasallik varaqasiga xato nafaqa to'lashdan bosh tortdi. Bunday bo'lishiga sabab nima

Variant 4

Kasalxonaga yangi dori keltirildi. Shu dori bilan davolanish natijasida letallik 5% ga kamaydi. Bundan avval ishlatib kelinayotgan dori bilan davolanganlar guruhida esa letallik 10%ni tashkil kildi. Bu ko'rsatmalarga asosan yangi dorining avzalligiga xulosa qilindi. qilingan yakuniy xulosa to'g'rimi

Variant 5

Kasalxonaning ginekologik bo'limida bachadon bo'yini saratonini davolashning yangi uslubi qo'llanildi. Yangi va eski uslub bilan davolanayotgan bemorlar ikki guruhga ajratilib o'rganildi. Natijada, yangi uslub bilan davolanganlar 5%ga ortdi. Bunga xatto davolash ishlarini olib borgan shifokor yangi uslubni avzal deb topdi. U to'g'ri xulosa qildimi

Variant 6

N, shaxrida o'lim sabablari tahlil qilinayotganda quyidagi ma'lumotlar olindi: yomon o'simta sababli o'lganlar umumiy o'limning 20% ini, qolganlari esa 80% ni tashkil etdi. qo'shni K shaxrida esa o'sma kasalligi bilan o'lganlar umumiy o'limning 15% ini, boshqa kasalliklar sababli o'lganlar esa 85%ni tashkil etgan. Bu natijalarga asosan K. shaxrida yomon o'simta sababli o'lim ko'rsatkichi N. shaxriga xato past darajada degan xulosa qilish to'g'rimi

Variant 7

1 Sexga xizmat ko'rsatuvchi shifokor bir yillik vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan kechadigan kasalliklarni tahlil qilish jarayonida 100 ishchiga nisbatan vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotgan hodisalari ko'rsatkichini hisoblashda barcha kasallik varaqalari pul to'langan va pul to'lanmagan inobatga olish natijasida 100 ta ishchidan 120 hodisa tashkil etgan. 2 tsex shifokori shunga o'xshash tahlil o'tkazganda faqat puli to'langan kasallik varaqalarini hisobga olgan va natijada 100 ta ishchiga 110 ta hodisa to'g'ri kelgan. Ushbu dalillarga asosan 2 tsexda kasallanish 1 tsexga nisbatan past darajada deb xulosa qilingan. Bu xulosa to'g'rimi

Variant 8

Ishchining 2 yoshli bolasi kasal bulib qoldi. U 8 avgustdan 23 avgustgacha kasalxonada davolandi, shundan yoshida 5 kun ogir axvolda edi. 5 kundan sung bolaning salomatligida ijobiy og'zgarish kuzatildi..

Variant 9

Bir ishchi 5 sentyabrdan 20 sentyabrgacha statsionarda davolandi. Bu vaqtda uning 7 yoshli bolasi 8 sentyabrdan boshlab kasal bulib qoldi va bolani otasi parvarish qildi.

Variant 10

V ismli ishchining 5 yoshli bolasi 4 fevralda kasal bulib qoldi va kasallik 6 kun davom etdi. 9 fevralda esa uning ikkinchi bolasi xam kasal bulibqoldi va uning kasalligi 7 kun davom etdi.

Variant 11

I. ismli ishchining 2 yoshli bolasi 7 iyunda kasal buldi. Ular poliklinikaga 8 iyunda murojaat qilishdi va bolaning kasalligi 8 kun davom etdi.

Vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotishga bog'liq kasalliklar ko'rsatkichlarini aniqlash uchun ma'lumotlar 11-jadvalda keltirilgan:

Vrachlik mehnat ekspertizasi bo'limidan xar bir talaba mustaqil ishni bajargandan so'ng o'zlashtirib olishi zarur bo'lgan savollar:

1. Mehnatkashlarni ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta qilishda sog'liqni saqlash tizimi organlari kasaba uyushmasining ahamiyati.
2. Davolash-profilaktika muassasalarida vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotganlik ekspertizasini yo'lga qo'yilish tartibi.
3. Vaqtinchalik mehnat qobiliyati ekspertizasi bo'yicha davolovchi vrach, bo'lim boshligi, bosh shifokor va uning muovinlarining vazifalari
4. Vrachlik maslahat kengashining(VKK) vazifalari va tarkibi.
5. Kasallik varaqasi – asosiy tibbiy, yuridik va moliyaviy xujjat sifatida
6. Vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotish turlari va ularda kasallik varaqasini berish tartibi
7. Mehnat qobiliyatini turg'un yo'qotish ekspertizasi. Vrachlik mehnat ekspert kengashi (VTZK), uning turlari, tarkibi va vazifalari.
8. Vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotish ko'rsatkichlarini aniqlash usullari.

Vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotish ko'rsatkichlarini aniqlash uchun ma'lumotlar

№	Vazirliklar	Ishchilarning yillik o'rtacha soni	Vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotganlar	Vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotish kunlari	Kasbiy shikastlanishlar soni
1	Soqliqni Saqlash Vazirligi	194002	123138	16448132	676
2	Madaniyat Vazirligi	5061	5243	67640	63
3	Xalk Ta'limi Vazirligi	268197	130660	1790759	411
4	Aloqa Vazirligi	24144	14426	1977725	101
5	Savdo Vazirligi	83349	43638	619667	245
6	Engil Sanoat Vazirligi	173931	157478	1753085	1439
7	Zlektrotexnika Sanoati Vazirligi	20696	23195	272259	349
8	Ko'mir Sanoati Vazirligi	6701	5125	72190	213
9	Go'sht sanoati Vazirligi	43933	31512	393104	166
10	Avtomobil-Transport Vazirligi	73267	59551	744157	535
11	Ximiya Sanoati Vazirligi	6113	5412	66905	60
12	Axborot Yo'nalishi Vazirligi	135442	93463	1146122	972

3.8 AHOLIGA SANITARIYA – EPIDEMIOLOGIK XIZMATINI TASHKILLASHTIRISH

(1992 yil 3 iyuldagi 657-sonli «O'zbekiston Respublikasida sanitar – epidemiologik nazorati» to'g'risidagi qonun, Sog'liqni Saqlash vazirligining 1998 yil 16 apreldagi 185-sonli «Davlat sanitariya nazoratini samarasini oshirish tadbirlari» to'g'risidagi buyrug'iga asosan).

Sanitariya-epidemiologik xizmatini tashkillashtirish bo'limi bo'yicha amaliy mashg'ulot kafedrada yoki Sanitariya –Epidemiologik Nazorat Markazi (SZN) bazasida olib boriladi. Talabalarni SZN tarkibi, shtatlari, vazifalari xamda poliklinika va kasalxonalar orasidagi bog'liqlik bilan tanishtiradilar. So'ngra talabalar mustaqil ravishda yoki uchastka epidemiologik xodimi bilan birgalikda xujjatlarni to'ldirishni o'rganadilar, sanitariya-epidemiologik masalalarga taaluqli boshqa direktiv xujjatlarni takomillashtirib oladilar, davolash-profilaktika muassasalarda sanitar-epidemiologik tartibini va profilaktik emlash ishlarini nazorat qilishni o'rganadilar.

Talabalar quyidagi tibbiy xujjatlar bilan tanishib chiqishlari shart:

- muassasaning sanitar holatini yozib borish jurnali – 306/u
- shtraf solinganlik xaqidagi farmoyishlarni ro'yxatga olish jurnali – 311/u
- ishdan chetlantirilganligi xaqidagi jurnal – 314/u
- sog'lomlashtirish muassasalarini qabul qilish bo'yicha akt – 316/u
- sog'lomlashtirish muassasalariga bolalarni qo'yish uchun ruxsatnoma – 318/u
- tayyor taomlarni va ratsionni kalloriyasi xamda kimyoviy tarkibini tekshirish natijalarini yozib borish jurnali- 347/u
- markazlashgan va markazlashmagan suv manbalaridagi ichimlik suvini tekshiruv natijalarini yozib borish jurnali – 326/u
- atmosfera havosini tekshiruv natijalarini yozib borish jurnali – 338/u
- tuproq tekshiruv natijalarini yozib borish jurnali – 331/u
- ozuqa moddalardan olingan sinama tekshiruv natijalarini yozib borish jurnali – 346/u
- yukumli kasalliklarni ekspluatatsiyasi qilish jurnali – 349/u
- dezinfektsiya ishlarini ro'yxatga olish jurnali – 353/u
- ovqatdan zaharlanishlarni ro'yxatga olish jurnali – 360/u
- sanitar-mikrobiologik va sanitar-gelmintologik tekshiruvlarni ro'yxatga olish jurnali – 379/u

Imkoniyatga karab talabalar yana boshqa tibbiy xujjatlar bilan xam tanishadilar.

Aholiga sanitariya-epidemiologik xizmatini tashkillashtirish bo'limidan xar bir talaba mustaqil ishni bajargandan so'ng o'zlashtirib olishi zarur bo'lgan savollar:

1. Sanitar-epidemiologik nazoratning davlatli tamoyilga egaligi. «Sanitar-epidemiologik» tushuncha.
2. O'zbekiston Respublikasida sanitar-epidemiologik nazoratini tashkillashtirishning asosiy tamoyillari va tarkibiy tuzilishi.
3. Sanitar-epidemiologik nazorat ishini tashkil qilish va pediatriya xizmati bilan bog'liqligi.

3.9 SANALOGIYA VA SO G'LOM TURMUSH TARZI

Ushbu mashg'ulot kafedrada olib boriladi. Talabalar sanalogiya tushunchasi, salomatlikni mustaxkamlashda tashkillashtiriladigan sanitar targ'ibot vazifalari bilan tanishadilar. Talablarga uslubiy qo'llanmada keltirilgan mavzular asosida taxminiy ma'ruza yoki byulleten tayyorlash topshiriladi. So'ngra talabalar sanitar targ'ibot usullari va shakllari bilan tanishadilar. O'qituvchi talaba tayyorlagan ma'ruza mazmuniga taqriz beradi. Keyin esa talabalar guruhda mustaqil ravishda sanitar-targ'ibot ishlarini olib boradilar va savollarga javob beradilar.

Talabalar quyidagi tibbiy xujjatlar bilan tanishib chiqadilar:

1. Tibbiy xujjat:

- sanitar-targ'ibot ishlarini ro'yxatga olish jurnali - 038/u

2. hisobot xujjati:

- sanitar-targ'ibot xonasining hisoboti, 50 -forma, tuman sog'liqni saqlash boshqarmasiga topshiriladi

Amaliy mashg'ulot va mustaqil ishlardan keyin talaba o'zlashtirib olishi kerak:

- aholi salomatligi mustaxkamlashdagi asosiy vazifalar, sog'lom to'rmo'z tarzi tushunchasi

- sanitar-targ'ibotning asosiy tamoyili va vazifalari

- sog'liqni saqlash tizimida sanitar targ'ibot usullari

- Salomatlik markazi vazifalari va tarkibi, shahar poliklinikasi qamrovi aholisini sanitariya ruxda tarbiyalash

- sanitar-targ'ibotni olib borish vositalari, sanitar-oqartuv ishlari olib borishni bilish.

Talabalar sanitar-targ'ibot o'tkazishi uchun ma'ruza va suxbatlar taxminiy mavzulari:

1. SPID va uning asoratlari
2. Alkogolni bo'lajak farzand salomatligiga ta'siri
3. Alkogolizm va unga qarshi kurashish
4. Chekishning zarari
5. Yangi tug'ilgan chaqaloqni parvarish qilish
6. O'zbekiston Respublikasida ona va bola salomatligini muxofaza qilish
7. 1 yoshgacha, 2 yoshgacha va x.k.larda bolalarning kun tartibi
8. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar gigienasi
9. Turli kasalliklarni yuzaga kelishida bolani tarbiyalash rejimi bo'zishini ta'siri
10. Raxitni oldini olish
11. Ratsional ovkatlantirish – bola salomatligini asosi.
12. Shamollash kasalliklarini oldini olishda chiniqtirishning ahamiyati
13. Bolalar o'limi – sanitar-gigienik muammo sifatida
14. Go'dak bolalar o'limining asosiy sabablari
15. erta neonatal o'lim sabablari va uni kamaytirish tadbirlari
16. Antibiotiklar va ularni qo'llanilishi
17. Yomon odatlar va ularni o'simtalar kelib chiqishidagi o'rni (nosni til tagiga quyish, chekish, spirtli ichimliklar ichish)
18. qarindoshlik nikox va uni bolaning jismoniy rivojlanishiga ta'siri
19. Gigiena qoidalariga rioya qilmaslik natijasida kelib chiqadigan teri kasalliklarini oldini olish
20. Bolalar orasida shikastlanishlarni oldini olish
21. Aqliy ish gigienasi

Ma'ruza va suxbat shaxar va qishloq aholisi orasida tashkillashtirilishi mumkin: tashkilot, kasalxona, poliklinika, bolalar bog'chalari, maktablar, oromgoxlar, maxallalar va boshqa jamoat maskanlarida.

IV. TALABALARNING KURS ISHLARI TO'QRISIDA

Kirish

Kurs ishlari pediatriya va tibbiy-pedagogika fakultetining 7 kursida bajariladi va o'tilgan jamoat salomatligi, sog'liqni saqlashni tashkillashtirish bo'yicha asosiy yo'nalishlarning yakuni hisoblanadi.

Shifokor ish faoliyatida o'z goylari va takliflarini mazmunli, ravshan va aniq ifodalay olish muhim o'rin egallaydi. Kurs ishini bajarish davrida talabalar uchun o'z ustida ijodiy yondashib ishlash imkoniyati yuzaga keladi, xar bir vaziyatda olingan ma'lumotlarga xato ko'rsatkichlarni aniqlash uchun talaba kerakli usullarni qo'llash va natijalarni tahlil qilish, unga asosan to'g'ri xulosa chiqarish imkoni tug'iladi, statistik usullarni qo'llagan holda yuzaga kelgan vaziyatni tahlil qiladi.

Vaziyatli masalalarni yechish bilan talaba umumiy amaliyot shifokori, tor mutaxassislar va ilmiy xodimlarning kelajakdagi ish faoliyatiga tayyorlanib boradi.

Variant – 1

«S» tumani 2009 yili 96.400 aholi yashagan. Tuman xududi yuzasi 2260 km² ni tashkil etadi.

Yil davomida tuman 3200 kishi kuchib kelgan va 6120 kishi kuchib kyotgan. Ushbu yilda tumanda 15-49 tug'ish yoshidagi ayollar soni 29600 bo'lib, ulardan – 23820 tasi turmush qurgan, ya'ni nikoxdagi ayollarni tashkil etadi.

Shu yili tuman 3140 ta bola tug'ilgan. 2008 yili tumanda – 2620 ta bola tug'ilgan. Yil davomida tuman 760 odam o'lgan. Ulardan: xayotining 1-chi yilida o'lgan bolalar soni 110 tani, xayotining 1-oyida o'lganlar soni 60 tani, xayotining 1-chi xaftasida o'lgan bolalar soni – 35 tani va o'lik tug'ilganlar soni – 20 tani, o'lgan onalar soni – 20 tani, 0-14 yoshda o'lgan bolalar soni – 240ni tashkil etadi

Aholi tarkibi:

0 -1 yosh – 600; 1-4 yosh – 5400;
5 – 9 yosh – 3800; 10-14 yosh – 6800;
15-19 yosh – 6400; 20-29 yosh – 12800;
30-39 yosh – 10000; 40-49 yosh -6400;
50-59 yosh – 5600 60 va undan yukori yosh 6200.

Demografik ko'rsatkichlarni aniqlang.

«S» tumanining oxirgi 5 yilidagi demografik ko'rsatkichlari:

№	Ko'rsatkichlar nomi	Yillar				
		2005	2006	2007	2008	2009
1.	Tuqilish	30,2	29,4	25,5	25,8	
2.	Umumiy o'lim	12,1	11,3	10,0	10,1	
3.	Tabiiy ko'payish	18,1	18,1	15,5	15,7	
4.	Go'dak bolalar o'limi	60,0	59,2	59,0	58,9	
5.	Umumiy serpushtlik	68,1	68,0	70,1	70,9	

Yil davomida qayd etilgan kasalliklar soni – 16200, shu jumladan: yangi paydo bo'lgan kasalliklar soni – 30310, maishiy shikastlar soni – 2240, ishlab chiqarish shikastlari soni – 3160, tumandagi barcha ishlovchilar soni – 32460, tibbiy ko'rikdan o'tkazilganlar soni – 21800, tibbiy ko'rikda topilgan kasalliklar soni – 9800, mehnat qobiliyatini yo'qotishga sabab bo'lgan kasalliklar soni – 22400, kasallik tufayli yo'qotishga ish kunlar soni – 314500, kasallik varaqasi olgan bemor shaxslar soni – 11600, nafas a'zolari kasalliklari – 6850, yurak-tomir kasalliklari – 10400, yuqumli kasalliklar – 4800.

Kasallanish va mehnatga layoqatsizlik ko'rsatkichlarini hisoblang.

Tumanda joylashgan 10-o'rta maktabning 10 yoshli o'quvchi o'qil bolalarining jismoniy rivojlanishini o'rganish natijasida quyidagi ma'lumotlar olindi:

Bo'y uzunligi: (sm) 139; 138; 137; 138; 139; 141; 144; 146.

Tana og'irligi (kg) 24; 26; 28; 30; 31; 34; 36; 38.

Korrelyatsiya koeffitsientini aniqlang va uning xaqqoniyligini baholash kerak.

Tuman markaziy kasalxonasining jarroxlik bo'limida davolangan bemorlar yotgan kunlari bo'yicha quyidagi variatsion qatorni tashkil etadi:

Davolangan kunlar: V – 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20, 21.

Bemorlar soni: P – 4, 9, 17, 23, 30, 35, 46, 29, 18, 10, 7, 4, 2, 1, 2.

Tuzilgan variatsion qator bo'yicha jarroxlik bo'limida bemorlarning o'rtacha davolanish kunlari qancha bo'lishini aniqlang.

«S» tumaniga davolash profilaktika yordamini ko'rsatuvchi bir qator tibbiy muassasalar o'z faoliyatini olib bormoqda. Markaziy tuman kasalxonasi 380 o'rinli, qishloq uchastka kasalxonalari 5 ta – 200 o'rinli, qishloq vrachlik punktlari 15 ta. qishloq vrachlik ambulatoriyali – 5 ta.

Ushbu yilda tuman bo'yicha kasalxonalarga davolanishga yotqizilgan bemorlar soni 38400 ta, ular 510200 o'rin kun o'tkazishgan, kasalxona o'rinlarining o'rtacha yillik soni 960 ga teng.

Yil davomida kasalxonalarda 360 ta kasal o'lgan, ulardan 280 tasi patologo-anatomik tekshiruvdan o'tkazildi. Tekshiruv natijasi shuni ko'rsatdiki, 210 ta bemorda patologik-anatomik tashxis davolovchi vrachlar tomonidan quyilgan klinik tashxisni tasdiqladi.

Tuman markaziy kasalxonasining shifoxonasi 36600 aholiga tibbiy xizmat ko'rsatadi. Yil davomida shifoxonaga qilingan tashriflar soni 410200 bo'lib, undan, kasallik tufayli qilingan tashriflar esa 180300 tani tashkil etadi. Xizmat ko'rsatilayotgan aholining 240 tasi yurak-qon tomir kasalligi bilan og'rigani aniqlandi. Birinchi marta aniqlangan 65 bemordan 45 tasi ushbu yilda dispanser kuzatuviga olingan.

Dispanserizatsiya tufayli 45 ta bemordan 40 tasining salomatligi tiklangan, 5 tasining sogligida ijobiy o'zgarish bo'lmagan.

Ayollar maslaxatxonasi va tug'ruqxonani ish faoliyat ko'rsatkichlarini aniqlang.

Yil davomida ayollar maslaxatxonasi tomonidan 4560 ta xomilador ayollar ro'yxatga olingan. Ularning 3860 tasi 3 oygacha muddatda, qolganlari 7 oydan keyingi muddatlarda kuzatuvga olingan.

Vasserman reaksiyasiga tekshirilgan xomiladorlar soni – 3800

Terapevt ko'rigidan o'tgan xomiladorlar soni – 3600

Tug'ruq bilan yakunlangan xomiladorliklar soni – 4100

Tug'ruqqa ruxiy profilaktika tayyorgarligidan utgan xomilador ayollar soni – 3700, Tirik tug'ilgan bolalar soni – 4065, o'lik tug'ilgan bolalar soni – 35

O'lgan onalar miqdori – 22

Variant – 2

«R» tumani 2009 yili 86 000 aholi yashagan. Tuman xududi yuzasi 238 km² ni tashkil etadi. 0-14 yoshdagi bolalar soni 30310 ta.

Ushbu yilda tumanda 15-49 tug'ish yoshidagi ayollar soni 15600 bo'lib, ulardan – 10600 tasi turmush qurgan, ya'ni nikoxdagi ayollarni tashkil etadi.

Shu yili tumanda 21600 ta bola tug'ilgan. 2008 yili tumanda – 2110 ta bola tug'ilgan. Yil davomida tumanda 420 odam o'lgan. Ulardan: xayotining 1-chi yilida o'lgan bolalar soni 56 tani, xayotining 1-oyida o'lganlar soni 35 tani, xayotining 1-chi xaftasida o'lgan bolalar soni – 10 tani va o'lik tug'ilganlar soni – 18 tani tashkil etadi. 0-14 yoshda o'lgan bolalar -180 ta, onalar o'limi soni -12 ta.

Demografik ko'rsatkichlarni aniqlang.

«R» tumanining oxirgi 5 yilidagi demografik ko'rsatkichlari:

№	Ko'rsatkichlar nomi	Yillar				
		2005	2006	2007	2008	2009
1.	Tuqilish	48,0	42,0	42,6	39,6	
2.	Umumiy o'lim	6,7	6,9	7,2	7,1	
3.	Tabiiy ko'payish	41,3	35,1	34,4	32,5	
4.	Go'dak bolalar o'limi	53,0	48,0	51,0	50,2	
5.	Umumiy serpushtlik	150,1	148,6	132,5	120,8	

Yil davomida qayd etilgan kasalliklar soni – 24500, shu jumladan: yangi paydo bo'lgan kasalliklar soni – 17260, maishiy shikastlar soni – 3160, ishlab chiqarish shikastlari soni – 1240, tumandagi barcha ishlovchilar soni – 6440, tibbiy ko'rikdan o'tkazilganlar soni – 16400, tibbiy ko'rikda topilgan kasalliklar soni – 8400, mehnat qobiliyatini yo'qotishga sabab bo'lgan kasalliklar soni – 3120, kasallik tufayli yo'qotishga ish kunlar soni – 47424, kasallik varaqasi olgan bemor shaxslar soni – 980, nafas a'zolari kasalliklari – 160, yurak-tomir kasalliklari – 850, yuqumli kasalliklar – 310.

Kasallanish va mehnatga layoqatsizlik ko'rsatkichlarini hisoblang.

20-yoshli talabalarning bo'yi va vazni o'rganilganda quyidagi ma'lumotlar olindi:

Bo'y uzunligi: (sm) 157; 158; 160; 165; 167; 170; 172; 174; 176; 180; 182

Tana ogirligi (kg) 56; 55; 57; 57; 58; 60; 63; 65; 72; 79; 82

Korrelyatsiya ko'effitsientini aniqlang va uning xaqqoniyligini baholash kerak.

Tuman markaziy kasalxonasining jarroxlik bo'limida davolangan bemorlar yotgan kunlari bo'yicha quyidagi variatsion qatorni tashkil etadi:

Davolangan kunlar: V – 20, 21, 22, 23, 24, 25, 26, 27, 28

Bemorlar soni: P – 2, 3, 6, 8, 10, 7, 6, 4, 3

Tuzilgan variatsion qator bo'yicha jarroxlik bo'limida bemorlarning o'rtacha davolanish kunlari qancha bo'lishini aniqlang.

«R» tumaniga davolash profilaktika yordamini ko'rsatuvchi bir qator tibbiy muassasalar o'z faoliyatini olib bormoqda. Markaziy tuman kasalxonasi 350 o'rinli, qishloq uchastka kasalxonalari 4 ta – 45, 30, 25, 50 o'rinli. Tub

dispanser -65, TTK dispanseri -110 o'rinli. Tumandagi jami o'rinlar 675 tani tashkil etadi.

Ushbu yilda tuman bo'yicha kasalxonalarga davolanishga yotqizilgan bemorlar soni 15200 ta, ular 214120 o'rin kun o'tkazishgan.

Yil davomida kasalxonalarda 160 ta kasal o'lgan, ulardan 145 tasi patologo-anatomik tekshiruvdan o'tkazildi. Tekshiruv natijasi shuni ko'rsatdiki, 140 ta bemorda patologo-anatomik tashxis davolovchi vrachlar tomonidan quygan klinik tashxisni tasdiqladi.

Tuman AP muassasalariga yil davomida qilingan tashriflar soni – 791200, ulardan kasallik tufayli qilingan tashriflar soni 520400 tani tashkil etadi.

Tumandagi umumiy vrachlik lavozimlar soni – 285 ta bo'lib, band bo'lgan vrachlik lavozimlari – 215 tani tashkil kiladi.

Tumanga kuchib kelganlar – 120 ta, kuchib ketganlar esa – 96 tani tashkil etadi.

Xizmat ko'rsatilayotgan aholining 34100 tasi yurak-qon tomir kasalligi bilan og'rigani aniqlandi. Birinchi marta aniqlangan 16180 bemordan 15100 tasi ushbu yilda dispanser kuzatuviga olingan.

Dispanserizatsiya tufayli 15100 ta bemordan 12600 tasining salomatligi tiklangan, 2500 tasining sog'ligida ijobiy o'zgarish bo'lmagan.

Ushbu yil davomida tuman bo'yicha xomilador ayollar soni 460 tani tashkil qilgan, xomilasi sun'iy to'xtatilgan xomilador ayollar soni – 40 ayollar maslaxatxonasi tomonidan erta 12 xaftagacha ro'yxatga olingan xomiladorlar soni 280 ta, kech (7 oydan) – 180 tani tashkil etgan.

Vasserman reaksiyasiga tekshirilgan xomiladorlar soni – 410.

Terapevt shifokor ko'ruvidan o'tkazgan xomiladorlar – 402.

Tug'ruq bilan yakunlangan xomiladorliklar soni – 420

Tug'ruqqa ruxiy profilaktika tayyorgarligidan o'tgan ayollar soni – 360

Xomilador, tuqqan va tug'uvchi ayollar orasidagi o'lim miqdori – 15

Ayollar maslaxatxonasi va tug'ruqxonani ish faoliyat ko'rsatkichlarini aniqlang.

Variant – 3

«F»tumanida 2009 yili 86 000 aholi yashagan. Tuman xududi yuzasi 2160 km² ni tashkil etadi. 0-14 yoshdagi bolalar soni -26600

Yil davomida tuman 6420 kishi ko'chib kelgan va 3420 kishi ko'chib ketgan. Ushbu yilda tumanda 15-49 tug'ish yoshidagi ayollar soni 30100 bo'lib, ulardan – 24200 tasi turmush qurgan, ya'ni nikoxdagi ayollarni tashkil etadi.

Shu yili tuman 2650 ta bola tug'ilgan. 2008 yili tumanda – 2120 ta bola tug'ilgan. Yil davomida tuman 870 odam o'lgan. Ulardan: xayotining 1-chi yilida o'lgan bolalar soni 120 tani, xayotining 1-oyida o'lganlar soni 46tani, xayotining 1-chi haftasida o'lgan bolalar soni – 20 tani va o'lik tug'ilganlar soni – 35 tani, 0-14 yoshda o'lgan bolalar soni – 210 tashkil etadi. Demografik ko'rsatkichlarni aniqlang.

«F»tumanining oxirgi 5 yilidagi demografik ko'rsatkichlari:

№	Ko'rsatkichlar nomi	Yillar				
		2005	2006	2007	2008	2009
1.	tuqilish	30,2	29,4	25,5	25,8	
2.	umumiy o'lim	12,1	11,3	10,0	10,1	
3.	tabiiy ko'payish	18,1	18,1	15,5	15,7	
4.	Go'dak bolalar o'limi	60,0	59,2	59,0	58,9	
5.	Umumiy serpushtlik	68,1	68,0	70,1	70,9	

Yil davomida qayd etilgan kasalliklar soni – 140600, shu jumladan: yangi paydo bo'lgan kasalliklar soni – 102300, maishiy shikastlar soni – 4160, ishlab chiqarish shikastlari soni – 2640, tumandagi barcha ishlovchilar soni – 36400, tibbiy ko'rikdan o'tkazilganlar soni – 36800, tibbiy ko'rikda topilgan kasalliklar soni – 5460, mehnat qobiliyatini yo'qotishga sabab bo'lgan kasalliklar soni – 21680, kasallik tufayli yo'qotishga ish kunlar soni – 303240, kasallik varaqasi olgan bemor shaxslar soni – 10300, nafas a'zolari kasalliklari – 6560, yurak-tomir kasalliklari – 3610, yukumli kasalliklar – 3820.

Kasallanish va mehnatga layoqatsizlik ko'rsatkichlarini hisoblang.

Tumanda joylashgan 10-o'rta maktabning 10 yoshli o'quvchi o'qil bolalarining jismoniy rivojlanishini o'rganish natijasida quyidagi ma'lumotlar olindi:

Bo'y uzunligi: (sm) 139; 138; 137; 138; 139; 141; 144; 146.

Tana og'irligi (kg) 24; 26; 28; 30; 31; 34; 36; 38.

Korrelyatsiya ko'rsatkichlarini aniqlang va uning xaqqoniyligini baholash kerak.

